Qirq birinchi yil qishda otamni Marg'ilonga MTS – kelcezlararo mashina-teknika stansiyasi partkomiga ketib qilib yuborishdi. Qor aralash yeng'ir yog'ib turganda zanjir g'ildirakli traktorga ulangan tirkamarining ochiq sahniga yuklarimizni ortib, Oltiariqdan Marg'ilonga ko'chganimiz esimda. Onam, men va chaqaloq ukam Elburs traktor kabinasida, otam, amakim, yana bir-ikki yordamchilar yuk oldiga chiqishdi. Yo'lda tirkama g'ildiragi ariqqa tushib, yuklarimiz ag'darilganini ko'rganman. Yagona mebelimiz hisoblangan shkaf – uni o'zbekcha qilib eg'aladon» deyishardi – boyga qorilgani ko'z oldimda. «G'aladon»ni eslab qolganim sababi shuk, məktəb o'qituvchilari bo'lgan otam, onam ikkovlari olgan oylik maoshlarini uning tortmasida saqlar edilar. Kim bozorga boradigan bo'lsa unga ko'pincha, – pul g'aladoaning tortmasida, degan so'z aytilar edi. Tortma quiflanmas, shogirdlar, jiyanlar kerakli pulni olib bozor qilishar ekan. O'sha – qishloqcha soddalik, to'g'rilik, kenglik, ishonch mu-

hit men esimni tanib ko'rgan, bilgan, umrim bo'yini yurakda havas bilan asragan ega xotiradir.

Astoydil niyat qilgan ekanman, yillar o'tib o'zim olla qurganimda sonadonimizda shunday muhit qarer topdi. Bunga mingdan ming shukrlar qilaman.

Xallas, qirq birinchi yil oxirlarida qishning qer analash yomg'iri ostida biz Oltiariqdan Marg'ilonga ko'chdir. O'sha loyli yo'l, tund ob-havo, kuppabunduzgi yarim qorong'ilik ruhiyatinda og'ir taassurot qoldirgan.

Ayniqsa, otamning shalabbo bo'lgan paltosi, boy tekkan yuzi ko'z oldimdan ketmazydi. Urushdan og'ir yarador va xasta bo'lib qaytgan otam qirq oltinchi yilda aynan o'pka shamollaishi kasali bilan olamdan o'sdi.

Hamma buni urushdan ko'rsa ham, men o'z go'dak xayolimda o'mashib qolgan o'sha ko'chish voqeasidan ko'raman. Otam o'shanda o'pkasini sovuqqa oldirgan deb o'ylyayman. O'ylyayman-u o'z o'zinga savol beraman. Shunday ob-havoda usi ochiq aravada ko'chish shartmidi? Soddalikmidi, vatanparvarlikmidi, yo partiyaniy topshiriqni bajarish zaruratimidi bu? Ya'mi xalq boshidagi azaliv qulchilikning belgisimidi?

Marg'ilon. Keng dala bahor chechakkari bilan qoplangan. Yangi ko'chib kelgan ishchilar uchen qurilgan qator yog'och uylardan MTS binosi ko'risib turardi.

Bir kun bolalar bilan yalanguyosq o'ynab yurib u binega borib qoldik. Bir to'p odamlar orasida gaplashib turgan dadamni ko'rib sevinchim ichimga sig'may qichqirgancha uning oldiga yugurib bordim. Dadam esa men tomonga o'girilib, zarda bilan: «Pochemma bonyakom?» dedi. O'sha kungacha uyd ham, ko'chada ham bir og'iz ruscha so'z qulog'imga kirmagan edi.

Tabitiki, tashummadim. Qo'rhib uyga qochdim. O'sha achchiq zardali so'z qulog'imga eng yomen

so'kishdek o'mashib qoldi. Qo'shni rus bolalar bilan urishib qolsam ularning «mat-mat»lariga javoban men ham «Pochemu bonyakom?» – deb yurganman.

O'shanda men bolakay partkomning o'g'li yalangoyoq yurmasligi, madaniy oila farzandi sifatida ruscha gaplashishi kerakligini qaryoqdan bilay?

«Pochemu bonyakom»ning ma'nosini tushun-ganimcha yillar o'tdi. Lekin o'sha kungi holatning mohiyatini anglash uchun umr kerak bo'ldi.

### ODOBLI NODON

O'n yoshga kirib kap-katta bola bo'lganimda ham ko'ppakning it ekanini bilmas ekanman. Vaholanki, qishloqda o'sgamman. It boqqanmiz. Toshkentda tog'am xonadonida yashab turganimaga ikki yilgina bo'lgan.

Tog'amning past bo'yli, sarg'ish yuzi, bilaklarini ham sariq tuk bosgan o'rtog'i bo'lardi. Uyimizdag'i biror yig'in u odamsiz o'tmas, vazmin, kamgap kishi edi. Uni hamma oldida «mulla aka», deb chaqirishsa ham ortidan «ko'ppak qorio» deb atashardi.

Men sodda bolakay bu nomning laqab ekanini bilmay, malla akaning asl ismi deb o'ylar ekanman.

Bir kuni oqshomda u kishi tog'anni yo'qlab keldi. Men eshkni ochib, odob bilan salom berdim. Tog'amning mehmonga ketganini aytdim va tavoze ko'rsatib, «uyga kiring, bir priyola choy ichib turing, tog'am kelib qoladilar», dedim. Endigina uchinchi sinfda o'qiydigan boladan bunaqa malozamatni kutmagan Mulla aka, «barakallow», deb boshimni siladi, qo'l ochib duo qildi. So'ng, tog'angizga mendan salom deng, kelganimni aytilib qo'ying, deb xayrleshdi. Men ham yuksak odob namunasini ko'rsatib, kirsangiz, o'tirsangiz bo'lardi, deya qo'limni ko'ksimga qo'yib xayrleshdim. Malla aka ko'cha tomonga ikki-uch qadam qo'yib yana orqasiga o'girildi: «Darvoqe, meni tanidingiz-a?» –

degen savol bilan yuzimga qaradi. Koski edi u kishi xayrlashgach indamsey ketaversa, to'xtab, orqaga o'girilib bu savolni menga bermagan bo'lsa. Koski edi men ham standidim deb qo'yaqolgan bo'lsam. Bilag'onligimni ko'satmasam. Men oqsoqolga hurnatimni astoydil ko'satib, u kishining oaziznomlarini alohida chitrom bilan aytdim: «Sizni yaoshi taniyman. Ko'ppak qori aka bo'lasizo.

Mulla akasing yuridagi haligi yumshoqlik, meheli tabassum tamom bo'ldi. Ko'zlari pirlinib, lablari titray boshladи. Hassasini nayza qilib men tomonga yurdi. Ura qochib hovliga kirdim-u eshilosi xanjirladim. Meni urishga ulgurelmay qolgan mulla aka bassani eshkka urib, meni eng esara liberalar bilan siylay ketdi. Eng soliqjanob+ niyastilar bilan choyi bad qildi. Xillas, mulla aka bir zumda ko'ppak qoriga aylandi-qp'ydi.

Uzoq yillar o'tib bu vogzani eslar ekanman, o'ylasam mulla akasing duolari ham, ko'ppak qorining qarg'ishlari ijebat bo'libdi. Qori aka boshda meni, umringdan baraka topo, deb duo qilgan edi. Barakali umr, baxt-saodat, solih farzandlar ko'rdim. Oliohga shukr qilaman.

Keyin esa g'azahga mingan qori meni, niyattingga yetma, deb qarg'agan edi. Hamma o'g'il bolalar kabi men ham uchuvchi bo'laman, derdim. Muhammedbekni havas qilgan edim. Bu niyatlariga yetmadim. Lekin peshonamga yesilgan o'z qisemtimidan o'kinmasymtan.

Qori yana, umringda halovat ko'rma, boshing g'andom chiqmasin, deb qarg'agan edi. Umrim halovatsiz kechdi. Na uyqoda, na uyg'oqlikda halovat ko'ndim. Ijediy mehnatning tabiatli shunday ekan, men uni baxt deb qabul qildim. Boshimga ko'p g'amlar ham tushdi... Oliohga shukrlar bo'lsinki, g'umlarimning ko'proq'i eygulik tashvishlari bo'ldi. Kitob yozish va nashr qiliш g'ami, imorat qurish g'ami, yangi jurnalni oyoqqa turg'itzish g'ami... To

tirik ekanman meni bu xil g'amlar tark etmasin, deb niyat qilaman.

Joyingiz jannatda bo'lsin, mulla aka! Men odobli medonni kechiring. O'sha kuni menoda gunoh yo'q edi. Balki shuning uchun qarg'ishlaringiz ham duysi xayr bo'ldi. Qabringiz surga to'lsin.

### BOLALIGIM BOG'LARI

Taxtapuldan chiqib kunchiqa tomonaga biror chaqirim yurmasdan keng dala va bog'lar boshlanardi. Biz yoz bo'yि bilqillagan issiq taproqni yalangoyoq bosib, olmazor, uzumazorlarda o'ynar, polizilardan handalak, qovun-tarvuz uxib, yorib yerdik, ariqlarda cho'millardik.

Toshleent ahlining ko'pchiligi yozda dala howlisiga ko'chib ketar, kech kuzgacha mehnat qilib, qishlikni g'amlab qaytardi.

Hezirgi kichik xalqa yo'l bilan Usta Shirin ko'chasi oralig'ida qarindoshlarimizning bog'ları, poliziari bo'lar, bahorgi qulupnay mavsumidan to kuzgi xazonchimakncha, ham hashar, ham oshar deganlaridek, u yerlardan qadamamiz uzilmasdi. Yong'oq qoqish va terish bormi, tutga chiqib shox silkitish-u tut tagida chodir tutib turish bormi, hammasi bizning bo'ynimizda, o'ynab-yayrab bajarar edik.

Keksa tut shoxlari bizga ham top-atraksion, ham lyuks restoran edi.

O'sha bolalik kunlarimni eslasam dienog'imga jiyda gulining hidi keladi. Dala hovlining eshligi yonida o'sgan bir tap jiydadan atrofga shirin bo'y taralar, uning tagidan rari ketgim kelmasdi.

## ISHQIBOZLIK BALOSI YOKI MUKOPOTGA AYLANGAN JAZO

1956-yilning noyabri edi. Jahon Olimpiya o'yinlarida ishtiroy etish uchun Avstraliyaga ketayotgan mamlakat futbol terma jamoasi Toshkenida bir necha kun to'xtab, mashq uchrashuvlarini o'tkazadigan bo'idi. O'sha zamonda bu jamea jahon futbolining oldingi qatorida sanalar, tarkibida nomi olamga ketgan Lev Yashin, Eduard Strelsov kabi ulug' sport ustalari bor edi. Ularning yurtimizga kelishi o'zbekistonlik futbol ishqibozlari uchun bayram bo'lgan. Lekin ishqibozlarning eng ashaddiyilari bo'lgan biz talabalar bu bayramdan benasib edi. Noyabr oyiga puxta terimining eng qizg'in pallasi, bishlar yalpi safarbar etilganmiz va birex talabaning biror soatga ham daladan ketishi mumkin emas. Terim - front, uni tashlab ketish jang maydonidan qochish, vatanga xiyonat qilish bilan teng sanalgan.

Ittifoq terma jamoasi bilan O'zbekiston terma jamoasi o'rtaсидаги uchrashuv kuni yaqinlashgani sari oromimiz ketib borar, vujudimiz Jizzax dalalarida bo'lsa ham jonimiz Toshkenida «Paxtakor» stadiosida edi.

O'yin boshlanadigan kun ashaddiy ishqiboz kursdoshim Rahmatulla Inog'omov bilan gapni bir joyga qo'yib, qorong'i saharda turdiq va qiyosh yeyilgunga qadar ikkitadan qopni to'ldirib puxta teridik. Kundalik majburiyatni ortig'i bilan tayyorlab, ishonchli do'stlarga topshirdik. Ular puxtasi bizning nemimiiza yezdirib qo'yadigan bo'lishdi. Shu tarza yo'qligimizni birov bilmaydigan qilib, nashga yaqin ikkovlon Toshkeniga qarib surdiq.

Ishni puxta qilganimizdan boshimiz osmonda. Stadionga ikki soat avval kelib, eng yaxshi joyni tanlab o'tirdik. O'zimizga o'xshash charm to'p devonalar bilan bahslashib, turli bashoratlar qilib,

Dil tubiga che'kkan ishqibozlari

o'ynalajak futbol spektaklining zavqini oldindan surib o'tirdik.

O'sha kuni bizlar oly mahorat maktabini, sportning yuksak san'at darajasiga ko'tarilganini ko'ndik. Garchi respublikamiz jamoasi yirik hisobda yutqizgan bo'lsa ham biz xafa bo'lmadik, ulug' futbolchilarining go'zal o'yinidan zavq-shavqqa to'lib qaytdik.

Qaytdig-u fakultet shtabiga kelganda zavq-shavqdan asar ham qolmadi. E'lonlar taxtasida fakultet dekanining buyrug'i osig'liq turardi: O'monlig'on imtirooni qo'pol ravishda buzganlari uchun quyidagi talabolar universitetdan haydalinsin, degan dahshatli so'zlar tagida ikki nuqtdan keyin biz ikki azamatning familyalarimiz qo'r to'kib turardi.

Hozirgina yayrab-yashnab shaxdam odimlar otib kelayotgan baxtiyor ishqibozlarning o'sha endagi ahvolini tasavvur etib ko'ring. Bamisolli boshimizdan bir paqir sovuq suv quygandek, nogahon elektr toki urib qotirib qo'ygan behush odamdek edik.

Kechqurus shtab majlisida komsomol faollari bizlarni eng burro, eng achchiq so'zlar bilan urkaltaksurkaltak qilaketdilar. O'sha oqshom sha'nimizga sylgan otashim ta'riflar hali hamon qulog'im ostida jaranglab turadi. Biz fakultet sha'nini yerga urgan, takaba degan sharafli nomga dog' tushirgan, vatan ishiga xiyonat qilgan, ertaga o'z yurtini ham sotishi mumkin bo'lgan tuban insonlarga aylandik. Biz terib qo'ygan paxtani xirmotga topshirib, yo'qligimizni bildirmagan do'stlarimiz ham dashnoendan qaraq qolmadilar. Bizlarga haydalish, ularga jiddiy hayfsan tayin bo'ldi. Shu payt bir chekkada jim o'tirgan professor Alyakrinskiy o'midan turib so'z so'radi:

«Majlisga kelishdan oldin men bu yigitlarning ham darsdagi, ham paxta terimidagi ko'rsatkichlari bilan qiziqdim. Hamma fanlardan «besho», hamma mehnat kunlarining rejasi a'lo bajarilgan ekan. Hato kechagi kum hissasini ham ortig'i bilan ado

etibdilar. Men boshliq bo'lgan rus gruppasi talablar bu yigitlar tergan yetmish kiloning o'ndan birini ham temaydilar. Meneedzo ularning birontasi biron kun shu gunchkorlardek mehnat qilsa men o'zim shahonga borib o'ynab kelishga ruxsat berardim. Siz esa ularga rahmat aytish o'rniga universitetidan haydarmoqchisiz. Men o'zim ham yoshligimda futbolga qiziqqanman, o'sha yoshda bo'lsam kecha men ham «Pantakor» stadionida bo'lardim».

Hurnmatli professoming so'zi majlis ahlini shashtidan tushirdi. Keyingi so'z olgular domlaning fikrida jon borligini aytil, keskin chora ko'rishga shoshtimaslik kerak, dedilar. Hay'at maslahatlashib shunday qaronga keldi: «likki talabaring o'zboshimcha xatti-harakati qo'riy qozilansin, belgilangan jago ijrosini pasta mavsumi tagaguncha kechiktirib turish dekanatdan so'ralsim». Bu qaromi hamma ma'qiladi.

O'sha kun yigirma yosh arafasidagi ikki bebosha talaba jar yoqasida edik. Institutdan herydalish, olyy ma'lumotliz qolishgina emas, manglayga o'chmas qilib urilgan qora dog' bo'ishi tayim edi. Uzoq yillar o'tib bugun xayol qilaman: Yaratganning o'si o'shanda bizlarni falokatdan qutqarish uchun o'z nazor farishasini yuborgan, bu farishta rus adabiyoti domlesi shaklida namoyen bo'lib, jaholat changahidan bormi tortib olgan ekan. Jaholat degunda odatda ma'rifatsizlikni fushunamiz. Aslida ma'rifatli lessonlar ham johil bo'ishi mumkin. Ongiga singdirilgan g'oyani mutlaq haqiqat deb bilgan, o'zgacha tafsikkani qabul qilmaydigan, boshqa fikrga nisbatan shafqatsiz odam eng qo'rejinchli jaholat bandasidir. Ulardan hayiqmaslik mumkin emas edi.

O'shanda qo'reqanimiz rest. Qanchi tekkan tulpoerdeki jon achelag'iida oldinga intilgansiz ham rest. Universiteda qolishning yangona chorasi pasta terimida o'zni ko'rsatish edi. O'sha yili men uch yarim tonnadan oshinib pasta terganman. Talaba

uchun bu ulkan ko'rsatkich edi. O'n to'qqiz yoshimda O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumining Faxriy yordig'ini olganman. Jon ko'zga ko'ringanda odamzed nimalarga qodir bo'lmaydi!

Jazo so'zining asl ma'nosi mukofot demakdir. O'lloh yaxshi amallaring jazosini bersin, deya duo qiladilar arablar. Biz o'shanda haqiqiy ma'noda jazo olgan ekanmiz.

So'nggi so'z: Bu xetiralarimni qog'ozga tushirar ekanman, olib Yaponiyadan xushxabar keldi. O'zbekiston futbolchilari jahon olimpiadasining samllashr bahsida Osiyo qit'asi championi Yaponiya temma jamoasini mag'lub etib guruh peshqadami bo'ldilar. Bizning sportchilarimiz bugun endi dunyo miyisosida hech kimdan kam emaslar. Hozirgi ishqibozlarga havas qilaman. Ular sevimi li jamoalarini ruhlantirib dumyoning hamma burchaklariga boradilar. Bizning ko'rgiliklar ular uchun bamisol ertak. Olam boshqa, yurt boshqa, futbol boshqa, ishqiboz boshqa bugun.

## KO'MILGAN TRAKTORLAR

O'ttiz yettinchi yilning «qama-qama»sida kundardan bir kun Oltiariq tumani prokureniga maxfiy konvert keladi. Konvert ichida sudya Karim Saixiboyevni qamoqqa olish to'g'risida order bo'ladi. Prokuror o'z do'stini, ya'ni mening tog'annni bu gapdan ogoh qiladi va tungi poyezd bilan Toshkentga jo'natib yelboradi. Ertasi kuni o'zi qamoqqa olinadi.

Men bu ulkan gavdali odamni birinchi bor 1956-yilda ko'rganman. Mahkam aka Sibirning qahrationlarini ko'rib, Magadan, Vorkuta lagerlarida sog'liqdan asyrlib qaytgan edi. Biznikiga harsillab-gursullab, ulkan gavdasini zo'rg'a ko'tarib kelar va ayvonga o'tirib suv so'rardi. Cho'michda emas, paqirda olib kel, derdi.

Hozir endi fikr qilsam, u sho'rlik iskanja

azoblarida ming dard qatori qand kasalligini ham ettingan ekan.

Mustabsid turumning qurboni bo'lib tirkayronaga aylangan bu inson o'z beshidan kechirgan antiqa va dahshatli voqealarni menga so'zlab berardi.

Mahkam akani Farg'onan hibsoonasiga qaramagach, uni so'roq qilish o'miga oldiga bir vanaq oq qog'oz qo'yib, shunday deydiilar: «O'zing prokuroresan, bizning ishimizni bilasen. Seni qiysoqqa solib o'tirmaylik. Xalq dashmani ekaningni bo'yningga olib, igejomomani o'zing yozza.

Zamon siyosatini tushungan Mahkam Karimboyev shunday mazmunda igejomoma yezadi: «Men haqiqatdan ham kolxozi turumiqa qarshiman, xalq dushmaniman. Buning isheti shuki, kolxozning ellikta traktorini jarilikka ko'mdinib yuborganman...»

Tutqun prokuror albatta bunday «igejomoma»ga biror oqil inson ishonmasligini bilgan. Birinchidan, o'sha zamonda kolxoza ellikta traktor nimsa qilsin! Ikkinchidan, yaqin otrodda jarlikning o'zi yo'q. Uchinchidan, traktor igna emaske, elliktasi ko'mib yuborilsa-yu biror topoimasa.

O'shanda aybim tekshirilar, adliya tizimida biror cali odam bordi, deb o'yabman. Adashgan ekanman, – dardi Mahkam aka. Bunday tizimning o'zi yo'q, adolat esa otib o'ldirilgan ekan. O'zim to'qigan betayin gunch bilan o'n to'qqiz yil mahbuslik azohini chekdim.

Bu so'zlamni eshriganda men talaba edim. Mening yosh ko'nglimga g'alayon solgan, sodda xayollarimni ag'dar-to'ntar qilgan bu dardli hikoyani eslasam, halihamuz vujadim larzaga keladi.

## HAYOTNING BIRINCHI ZARBASI

1962-yil meni bir guruh noshirlar qatorida Boku va Yerevanga, Ozarbayjon va Armasiston nashriyotchilari bilan tajriba almashtish uchun safarga

yuborishdi. Kavkazning sehri manzaralari, detigiz-u tog'lari meni lol qoldirib, bir turkum xayolchan ruhdagi she'rlar yozgan edim. Ayniqsa, g'azallarini jondan sevib qolganim Muhammad Fuzuliyning marmar siyemosini Bokuda ko'rib cheksiz hayajonga tushganman. O'shanda bammisoli o'z-o'zidan quyulib kelgan «Fuzuliy baykali qoshida» she'ri men uchun bali-hamon qadrlidir.

O'shanda mumtoz shoir she'rlariga mahliyo bo'lib, o'zim yozgan satrlardan o'zim zavqjanib yurganimda, bu she'r menga talay ko'rgiliklar keltirishimi o'yabmidim?

She'r «O'zbekiston madaniyat» gazetasida bosilgach ko'p o'tmay Yozuvchilar uyushmasining yig'inida ushbu dargoh rahbarjidan biri meni ayovsiz tanqid ostiga olib, she'rlarimni siyosiy tuturiqsizlikda, yet g'oyalarni targ'ib qilishda, pessimizm va yana allaqancha men tashunmagan «izmzlarda ayblidi. Tanqid markazida «Fuzuliy baykali qoshida» turdi: «Bizlar, — dedi notiq, — yosh shoirmi Kavkazga safarga yuborganimizda u Boku nefichilarining qahramonlik mehnatidan ilhom olib, ko'kka bo'y cho'zgan neft minoralari haqida zalvorli she'rlar yozar, deb o'yagan edik. U bo'lsa allaqaysi shoirlarning ko'z yoshlarini she'rga solibdi. Partiya shoirlar oldiga ulkan vazifalar qo'yib turganda, bunday ijod namunalarini yozish o'taketgan mas'uliyatsizlidir!» O'shanda gulduros qarsaklar bilan qarshi olingan otashin bu mutq Yozuvchilar uyushmasi devorlaridan oshib, kompartiya va komsomolning baland minbarlariga ko'tarildi. Avval mening ismim komsomol syczdida ma'ruzaga tushi, so'ng O'zkompartiya kotibining plenumdag'i mutqida tilga olindi. Barcha tanqidning mazmuni o'sha Yozuvchilar uyushmasidagi dashnomuning o'zi edi. Yosh umidli shoir bo'lib yurgan yigit bir lahzada burjua g'oyalarini tashuvchi yet unsurga aylanib

qoldim. Mening ixtirobbi, alamlı, ichki isyon bilan to'lib-toshgan kunişim boshlandi.

Har balosning daf'i bor, har zararning na'si bor, drycidilar. Yuqori dargohlarning g'azabli na'sasi aks sado berib, eldan menga e'tibor, hamdaslik bo'lib qaytdi. Tanimaganlar taridi. Biror shoirni xalq ichida mashhur qilaman, degan hukumat unga maqpovlar yog'dirib targ'ibedlar qilmasin, balki ayoqsiz de'poslasin ekan. Ayniqsa, sho're davridagi kabi el nazaridan qolgan hukumat uchun bunday teskari tafsir ayni mudiao bo'lar ekan.

Shunday qilib, mening hech kim tanimagan somim mish-mishlar qanotida elga tarqaldi, birov o'qimagan she'rlarim qidirib topib o'qiladigan bo'ldi. Axir O'skompartiyaning masfkura ketibi o'zi oly firqa minbaridan tilga olib tursa men mashhur bo'lmay kim mashhur bo'lsin?! Menga temon yo'naltirilgan quadratli zarba tamisoli mitti qushga qarata otligan zambarak edi. Bu zarba har jihatdan menga foydali bo'ldi. Avvalo meni elga taniddi, o'z yurtimda va qardosh xalqlar ichida do'st va xayrixohlarim ko'paydi. O'zin bushyer tortib, yoshlik, havaskostlik qobig'ini tezreq yorib chiqishim uchun ham bunday usovruq suvoning foydasi bo'ldi.

Ashda bizning ustimizga yetib kelgan qora buhitlarning tug'ilgan makoni Moscow shahri edi. Sho're rahbar Nikita Krushyovning bir guruh yangicha filerkowchi ijodkorlarga mintarni mushhilab qilgan dag'dag'asi, masfkunda men stalinchiman, deya o'shqirgan ovozi Toshkenida ham aks sado bergen edi. Moskovdagagi kabi bu yerdagi ham adasligan yosh ijodkorlarni topib tanbeh berish kerak edi. Shu talabga «abbaye» deb javob bergen o'zimiz bo'lib chiedik.

Bu tarixni eslashdan maqsad zinhor o'zimni o'tmish jabediyyasini qilib ko'rsatish emas. Shukrki, o'ttiziuchi yoki elliginchchi yillarning dovullari bizning boshimizga kelmadi. Davr boshqa, muhit boshqa

Dil shaxsiy cho'kkani lishalar

edi. Hayotning ilk zarbasidan omon chiqdik, lekin sinovlar hali oldinda edi.

## BIR XATONING IZTIROBLARI

Beayb - Parvardigor. Inson zoti xatolardan emin emas. Bu chalkash dunyoda, ayniqsa, biz boshdan kechirgan yangilishlar to'la davronda adashmoq tabiiy edi, bugun ham shunday va balki odamzod soqislikdan hech qachon xoli bo'lmas. Lekin bu olarnda shunday xatolar borki, ularning chohiga tushgan kishi umrbod yorug'hikka chiqolmasydi. Men o'z ko'zim bilan ko'rgan bir qismat bunday falokatning ayanchli namunasidir.

Ikkinci jahon urashi tagab, g'alaba hayqiriqlari tinmasdan, bayram nusshaklari so'nmasdan Sho'rolar davlatida yalpi qamatishlarning navbatdagi to'lqini boshlandi. Bu to'lqinning dastlabki zarbasiga ziyyolilar - atoqli olimlar, shoirlar, yozuvchilar uchrudilar. Milliy adabiyyot vakillari ichida umume'tirof etilgan barhayot muntoz adib, o'sha zamonda, shubhaziz, Oybek edi va sho'ro mafkaraviy siyosatining palaxmon toshi dastavval shu ulug' yozuvchiga qarata otildi.

Biz boshdan kechirgan turamusing o'ta nozik, ko'p sinalgan va ochig'ini aytganda o'ta qabib uslubi bor edi. Uni qisqacha qilib, «sopini o'zidan chiqarish» uslubi deyish mumkin. Agar biror millat farzandiga zarba urish kerak bo'lsa, bu ish albatta o'sha millat vakilining qo'li bilan qilinar, hukmni ijro etuvchi o'sha yurtning o'zidan topilar edi.

Taqdir taqozosi bilan Oybekka otilgan toshga adabiyyotshunos Botir Fayziyev palaxmon bo'ldi. O'zbekpartiya gazetasi bo'lgan «Qizil O'zbekiston»da Oybekni millatshilikda syblovchi maqola shu olim imzesi bilan bosildi. Yozuvchiga qo'yilgan ayb o'taleetgan wydirma, kalgili darajada snyoz va mantiqsiz edi. «Navoiye» romanida tasvir etilgan bir

qahramonning sharob ichishi batf bilan qozoqning qimiz sifatishiga o'xshatilgan. Maqolada aytishicha, bu o'xshatish qozoq xalqini maseura qiliш bo'tar ekan. Bundan xulosa, Oybekning romanida millatchilik g'oyasi olg'a surilgas, xalqlar do'stingiga begona rub mavjud.

Avvalo qozoqning qimizso'rligi o'zbekning choyaо'rligi, frossuz yoki gurjining mayxo'rligi kabi odatiy hol va benden or qiliш o'rinsiz. Bil'aks, milliy odat sifatida qadirlanadigan bolatdir. Qolaversa, asardagi tasvirda asal-azaldan o'zbekka biredar, tug'ishgan, hozilcash do'st xalqqa nisbatan beccor va mehr to'la lutidan boshqa tuyg'u yo'q. Buni qozoq ham, o'zbek ham his qilib turganda ulug' adib boshtida gumborilagan momaqaldiroq, syniqsa bugungi ko'z bilan qaraganda, bag'oyat tsajjubliidir. Lekin u zamonda yozuvchini millatchilikda ayblash, unga o'llim hukmimi chiqarishdek dahshatlilish edi. Cho'ipoa, Qodiriy, Usmon Nosir kabi o'nlab ijodkorlarning shu kabi tanqidlardan so'ng yo'q qilinganini o'z ko'zi bilan ko'rgan Oybek adeoltsizlik iztirobiidan falaq holenga tushdi va umrining so'ngigacha o'nglanolmadi. Bu zerbadan keyin yaratilgan asarlar yarimta jon bilan, kuchli sabot va iroda evaziga danyoga kelgan ijod narminalaridir.

Oybekni falaq qilgan aslida qattoj tuzum edi. Ammo tuzum ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan tutib bo'lmaydigan bir qudra bo'lgani uchun elning g'azab va qarg'ishi o'sha tuzum hukmimi ijro etgan aniq va mavjud shaxs – Botir Fayziyev boshsiga yog'ildi.

Men 1960-yili universitetni bitirib yoshillar nashriyotiga ishga kelganimda Botir Fayziyev shu darspohda muharrir bo'lib xizmat qilar ekan. Taqdirming tazozosini qarmagki, Oybek ijodining shaydoi, Oybek so'zining sehriga mahliyo bo'lib yorgan yosh shoir Oybekka yesh olib, o'zbekdan chiqqan Dantes deya nomi olgan odam bilan bir xonada bir yilga yaqin ro'baro' o'tirib ishladi.

Oshicora va pinhon nadornatlardan, tabqir va qarg'ishlardan zada bo'lgan bu odam kum bo'yli qog'ozdan bosh ko'tarmay ishlar, hech kim bilan gaplashmas, devonavash holatda xayol surib yurur edi. Hech bir guruh, hech bir ulfat uni o'z qatoriga chaqirmas, o'zi ham bunga intilmas, yolg'izlikni hayot tarziga aylantirgan inson edi u. Bundaylar to'g'risida, yerda uning o'zi emas, soyasi yuripti, deydiilar.

Bir yilga yaqin indamas odam bilan bir xonada o'tirib ishlash osor emas. Men necha bor og'iz juftlab Botir Fayziyevdan o'sha mash'um maqolaning yo-zilish tarixi to'g'risida, uni shunday ishga majbur qilgan holat to'g'risida so'ramoqchi bo'ldim. Lekin bu majruh yurakning yarasini yangilagim kelmadi. Uni birinchi ko'rgandagi xushlamaslik oylar o'tib achinishga, zamonnинг tirk qurboni bo'lgan insonga nisbatan rahm-shafqatga aylandi.

Har qandzy jazo gunohga yarasha bo'lsa durust. Salgina parishonligi uchun mashina urib o'ldirgan yo'lovchining ochiq qolgan ko'zlarida bayrat qotib qoladi... Birgina irodasizlik, zamonasozlik, vijdonga xilof ish Botir Fayziyevni tirklay halok qilgan edi. Xalq nafrati umrbod qamoqdan yoki surgusidan, hatto o'llindan og'ir jazo. Botir Fayziyevning iztirobelarini hech kim anglarnadi va kechirunadi. Faqt bir oliyjanob insongina uni kechirib, madad qo'lini uzatdi. Bu inson – Oybekning o'zi edi. Adashgan olimning ilmiy asarini ulag' adibning o'zi qo'llab-quvvatladi.

Bu voqeя – men guvoh bo'lgan bir taqdır hikeyasidir. Oybekning o'zi kechirgan insonni Olib ham rahmatiga olgan bo'lsin. Ulug' adib va ulug' inson bo'lgan ustozga esa o'zi go'zal she'rlerida ta'riflagan bog'-u chamanlar baqо saltanatida nasib etsin. Biz – yanglish to'la dunyoda yashab yurganlarni Olib og'ir xatolardan, umrni xazon qil-guvchi gumrohliliklardan aراسин.

Yana bir tilagim, jamiyat barkamol, hayot ma'nni  
va yong' bo'limg'i uchun insonlar ichida O'ybek  
kabi olivjanob, kechirimli qalb egalari ko'proq  
bo'lsin!

## QOFTYASINI TOPOLMADIM

Yetmishinchil yillarning boshi edi. «Yoshlik devoniiga kirgan qasida ustida gap-so'zlar tisemagan, ish joyimdan pattam qo'llimga tegib, to'n tomonim qibla bo'lgan payt. Bir kuni meni yuqori idoraning yuqori amaldeci chaqirirdi. U dargohga odaitda yarshilikka chaqirilmas edi. Lekin rabbar meni ku-lib qarshi oldi, hol-abvol so'nadi va shoshmasdan maqsadga ko'chdi:

— Qasidangizni bu yerda sinchiklab o'qidik. Xato yo'q. Hammasi joyida. Faqt ozgina maromiga yetmegan. Yetuk asar bo'lishi uchun yana to'rebesh bayti qu'shish kerak, — dedi u qat'iyat bilan va qo'llimga qog'oz bilan qalam bendi, — yozib oling. Birinchidan, o'zbek xalqi Oktabr isqilobi tufayti baxt-sandat topdi, yuksaldi. She'nda bu albatta aks etishi kerak. Yozing. Ikkinchidan...

Rabbar ulug' dohey ta'llimosi, komfirqa g'oyalari, ulug' rus xalqining og'alik yordamni to'g'risida batafsil so'zlab, oxiri Moskva, Kreml yulduzining shu'lesi bilan ilhombaish so'zlarini yakun qildi. Men hayojonli darsga mahliyo bo'lib, yozish esindan chiqqanda, qayta-qayta eyozing» deb turdi.

— Gap kelajagningiz ustida bormoqda. Sizdan umidimiz katta. Qasida maromiga yetsa, kitobingiz ko'p nusxada bosiladi. Yaxshi niyatlarimiz ber. Kelishdikmi?

— Harakat qilaman, — dedim bo'shashibgina.

— Bu dargohna chuchmal gap bo'lmaydi. Sizni maslahatga chaqirganimiz yo'q. Bu qat'iy topshiriq, — deya amaldor ko'rsatkich barmoqlarini shifga to'g'riladi. Xayrashar ekan, yana yunshab, ijodiy

muvaffaqiyatlar tiladi va hazil aralash: – Mavzuni baytma-bnyt aytib berdim. Qofiyasini o'zingiz topasiz, – deb qo'ydi.

O'sha dargohdan eson-omon chiqib, bir yilgacha hech qayerda ko'rinnary, telefonlarga javob bermay, yoz dala-dashtda, qish turli kutubxonalarda berkinib yurdim. Lekin qismatdan qochib bo'limas ekan, kunnardan bir kun akademik teatr yo'lagida o'sha mahbarga ro'baro kelib qoldim. Qochishning ikoji yo'q edi. U kuchli qo'llari bilan bilagimdan siqib: – Kelishgan edik, va'da qani? – dedi. Dabdarusidan javob topolmay og'zimga kelgan so'z shu bo'ldi:

– Qofiyasini topolmadim...

O'shanda buyon ko'p suvlar oqib ketdi. Dunyo boshqa, dutyoqarash boshqa bo'ldi. Biz o'zimiz ham endi boshqa odamlarmiz. Sobiq rahbar bozirda hurnatl olim, professor, ustoz. Ilmiy, ijodiy davralarda ko'p uchrushib turamiz. Falsafa va tarixning keng bilimdoni bo'lgan ulug' yoshli mudarris bilan qadrdomiz, ko'p suhbatlar qurganmiz. Lekin o'sha qirq yil avvalgi gapei muhokama qilmaymiz. O'tgan ishg'a salovot. Men ishonamanki, bu ollyjanob insen o'shanda menga yaxshilik qilmoqchi bo'lgan. O'z qo'llim bilan men o'z boshimga keltirgan xavf-xatarni bartaraf etmoqchi bo'lgan. Balki o'zidan ham yuqorida turganlarning topshirig'ini bajargan va yuqoridagilar ham menga yomonlikni ravvo ko'maganlar. Zamon nezik edi. Hukmron maskura posboni bo'lgan organlarning ku-chi ko'p, shafqati kam, changali qattiq edi.

Ne bo'lsa ham men topshiriqni bajarolmadim. Himnoynachilarimning umidlarini oqlayolmadim. Qasida ular niyat qilgancha siyosiy yetuk asar bo'lelmadi va yigirma yildan ziyod qora ro'yxatdan chiqmadi.

Nihoyat, Vatan Istiqloli «O'zbekim» qasidasini mahkumlikdan ozod qildi. Radio, televideniye or-qali ham baralla o'qiladigan, kuylangsidiyan bo'ldi.

Maktab darsligidan o'rin oldi. Bunday kanni o'z ko'zim bilan ko'rdim. Ming shukr. Yana shukrlarki, o'sha zamonda yokesak topshiriqni ado etolmadim, aqofiyasini topolmadim».

Inson agli noqis, u olis kelajakni ko'rabilmaydi. Men ham o'shanda buyruqni bojarmagan bo'lsam, donoligim yoki uzoqni ko'rganim uchun emas, azbaroyi ko'nglim chopmagani, o'sha g'oyakarning she'r ruhiga singmagani uchundir. Yess ham to'g'riroq'i. Yaratganning o'zi asraganidir.

Hamisha niyat qilaylikki, Olleh aytgan so'zimiz, qilgan arnalimiz, qo'yigan qadamimizni eqibati bilan to'g'ri qilsin!

### YORDONGA KELGAN JORDAN

Bir vaqtlar bulg'or yozuvchisi Jordan Milev O'zbekistonga kelganda uni Farg'onaga olib bordik, Shohimardonni ko'rsatdik. Go'zal tog' qishlog'i Yordonga kelganimizda taniqli adib O'lmas Umarbekov do'stiga hazzillashtib dedi:

— Sen bu qishloqqa kelgan birinchi chet ellik yozuvchisan. Kecha eqsoqollar kengashi qaror chiqardi. Qishloq soning noming bilan ataladigan bo'idi.

Biz hammaniz buni tasdiqladik. Atrofida yurqanlarni chaqirib bir-bir qishloqning nomini so'radik. «Yordong» so'zini eshitib mehmonimiz yaysab ketdi. Uni boplab aldashtik, deb biz ham xursand. Lekin kochki ziyoferat vaqtida Jordan so'z olib harilda bordan ham o'tib tushdi:

— Bu ajoyib so'lim maskanga mening nomim berilgani uchun boshim osmonga yetdi. Arablar bir zamон кatta daryoni mening sha'nimiga fezdan deb, bir mamlakatni Jordaniya deb atagan edilar. Mana ular yoniga qishloq ham qo'shildi. Bulg'oriyada birov tanib, birov tanimagan bir yozuvchiga dunyoda shuncha izzat, e'tibor! Arab do'starimga rahmat,

lekin ularning daryosi ham, mamlakati ham menga kerak emas. Bulbullar sayragan, soyları sharqiragan, jannat shaxnoli esib turgan bu qishloqqa olamni alishmayman!

Jordan Milev O'zbekistonga ko'p bor keldi. Har kelganda birinchi savoli shunday bo'lardi: – Qishlog'imga qachon boramiz?

## BILMAGANNING BILAG'ONLIGI

1988-yil yozida biz – Xorijiy mamlakatlar bilan muddaniy aloqa qilish jamiyatining bir guruh faollari Amerika Qo'shma Shxatlarining «Friendship – force» ya'ni «Do'stlik – qudrat» deb nomlangan jameat tashkiloti taklifiiga ko'ra okean ortiga safar qildik. Bu mening AQShga birinchi sayohatim edi.

Bizning mezbonimiz o'rtohol amerikaliklarning nodavlat uyushmasi bo'lib, ularni turli yurtlarga kamroq xarajat bilan safar qilish istagi birlashtirgan ekan. Dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlarida o'zlarini kabi nodavlat uyushmalar bilan aloqa o'matib oilaviy bordi-keldini yo'lga qo'yishibdi. Safar qiluvchining bo'ynda faqat tayyora xarajati, qolgan chiqim: turarjoy, sayr-u sayohat, yeb-ichish mezbonning zimmasida bo'lar ekan. Ular odadda mezbon xonardonida turishar, uning oilasi bilan bir dasturxonadan ov-qatlaniшar, oddiy odamlar turmushi bilan tanishib, yurt kezib, ma'nan boyib qaytisharkan. Rosti, bu tashkilotga havasim keldi. Ularning kamtarin uylarida bo'lib, biz ham o'zimizning yanada kamtarinroq uylarimizda yangi do'stlarni mehmon qildik. Bunday sarmimiy manosabat menga qimmatbaho Inturist mehmonxonalarini, hashamatli restoranlardan ming bor afzal tuyuldi.

O'sha vaqtida men bir og'iz ham inglizcha bilmas edim. Delegatsiyamiz tarkibida menga o'xshaganlar ko'p bo'lgani uchun bizga hamroh bo'lgan uchtagina tarjimon o'rtamizda talash edi. Men maqola yo-

zishim kerakligini aytib iltimos qilganim uchun tarjimonlardan biri menga biriktirildi.

Biz Siet shahrida Valeriy Chkalov yodgorligini ziyorat qilish uchun mo'jazgina xususiy aeroportga borsik. Bu tayyora maydoniga Chkalov boschchiligidagi ekipaj 1936-yilda Shimoliy muz okeani osha kelib qo'nigas.

O'zbekistonlik sayyohlarni ko'rib astrofimizda o'sha yerlik aviosportchilar yig'ilal boshaladilar. Bizning qaysi yurtidan kelganimiz, o'zimiz kim, kasbimiz nima, surishchira ketdilar.

Ulardan biri, sho'xroq uchuvchi bo'lsa kerak, menqa qarab o'z tilida, yur, seni sport samolyotida uchiraman, dedi. Men o'zim bilgan eng jo'n ingliz so'zlarini ishlatib, «no, ay xev children» dedim. Ya'ni: «Yo'q, mening bolalarim bor», - deb aytidim.

Hammalari birdan qah-qah urib kallib yuborishdi. Keyin bilsam, meni samolyotiga taklif qilgan yigit o'zining qatlis mashqlari bilan, osmondagichirpirak o'yinlari bilan mashhur ekan. Men uni tanigan, bilgandek javob qaytaribman. Do'stlar, ana, sening dovrug'ing O'zbekistongacha yetibdi, deya xondon urishayotgan ekan. Ayniqsa ularning biri avval tizzalariga urib, keyin yerga yetib odib kaldi. Salardoshlarini hayron, o'zim hayron. Nima deb qo'ydim-a, nega bunaqa qah-qah ko'tarildi, anglamayman.

Bilar-bilmas aytigan gapning natijasi shu bo'ldiki, delegatsiyamiz rabbari, o'sha zamonda ministr lavozimida ishlagan yirik arbob menqa qarib jiddiy ohangda shunday dedi: «Bugundan boshlab sizga tarjimon yo'q. Ingliz tilida askiya qilasiz, amerikaliklarsing ichagini uzasiz, yana til bilmayman, deysiz. Qo'ying-e!»

O'z tilim - o'z dashmanim, deb bekorga aytmaydilar. Bir marta mukhammadonlik qilganim uchun ikki hafta soqev bo'lib, imo-ishoraga kunim qolib yurdim.

DIL NIZOGI CHOI^KAN LATZALAR

## UCH SOQOVNING SARGUZASHTI

Til bilmaganga katta shahar nimsa-yu, kimsasiz o'mmon nima. Adashding – ado bo'lding. O'monda dod desang eshitadigan odam yo'q. Begona shaharda gapingni uqsdigan kishini topolmaysan.

1989-yili ikki birodarlashgan shahar Toshkent va Sieti haqida hujjatli film suvratga olish uchun uch muallif – rejissor, tasvirchi va kamina – film matnini yozuvchi A.QShga jo'nab ketdik.

Nya Yorkda bizni, kelishilganidek, qo'lida nomlarimiz yozig'liq taxtacha ushlagan ayol kutib oldi. Sietiga uchadigan tayyoragacha kuzatib xayrflashdi. Uch soatga yaqin parvez tagab tayyoramiz yerga qo'nganda, manzilga yetib keldik, deb yukxonaga shoshildik. Lekin yuklar eqimi ichida bizning chammadoslar ham, tushqarida biror kutib oluvchi ham ko'rinnmas edi. Anchagina turdik. Hech kim yonimizga kelmadi, kimsan, nima qilib turibsan, demadi. Vaqt o'tgan sari xotirjamlik bezovtalikka, bezovtalik vahimaga aylandi. Begona qit'a, begona shahar. Oq'izda zabor, cho'ntakda pul yo'q. O'z yurtida tili bir qarich bo'lgan biz uch oliftaning notavon ahvolini ko'ring!

Jon ko'zga ko'ringanda nimmalar ham qilmaysan kishi. Uchovlon tayyora biletlarimizni qo'lga olib, birinchi uchragan aeroport xizmatchisi libosidagi qora zangi ayolining yo'lini to'sdik. «Kechirasiz, birga yordam bering», deydigan til qani? Xizmatchi ayol avvaliga cho'chidi, so'ng nochor holatimizga qarab vaziyatni tushundi. Holatimiz esa bundoq edi: uchov qo'lida chipta ushlagancha yelka qisgan, hayronlik alematida qotib turgan bamisol uch haykal edik.

Xizmatchi chiptalarimizni ko'rib qo'l soatiga qaradi va yuzida hayajon slomati paydo bo'ldi. Tezda cho'ntagidan qalam olib, chipta ustiga katta qilib 14 raqamini yozdi va yo'laklardan birini ko'rsatib, yugurish ishorasini qildi. Biz o'sha tomoniga qarab yugur-

dik. Angladikki, hali manzilga kelmabmiz. Aeroport darvozaları ko'satikchilariiga qarab choggancha oxiri 14 raqami oldida to'stadik va xizmatchiga chiptalarni uzatdik. Xizmatchi boshini sarak-sarak qilib teparimizda turgan soatni ko'natdi va chiptalarga tunc'a urib, bizni ichkari kiritdi. Tayyora saloni to'la odam, faqat o'talarida uch o'rni bo'sh edi. O'tirdig-u tayyora xuddi bizi kutib turganday qo'zg'alib, uchish maydoniga yo'l oldi.

O'sha kuni Olloh bizni sharmandali xor-zorlikdan omon saqlab qoldi. Biz yo'llini to'sib chiqqan ayol - aeroport xizmatchisi bizga g'oylibdan kelgan nafot farishtasi bo'ldi. Uning mehnbon va tashvishli nigohi ko'z oldimdan ketmaydi.

Kim bilsin, u bizni kar-soqovlar deb o'ylagasdir. Hargalay, uning asseydil harakatisiz holimiz yomon edi.

Safardan olganim o'sha acheniq saboq bo'ldi. Ingлиз tilini o'rganishga qatl'iy ahd qildim va shdimni andakkima bo'lsa-da bajardim. O'sha o'sandak olib yo'llarda kunimga yaradi. Dindug bo'lsam-da, soqov bo'imadim. Bugungi yechlarga endi til o'rganining desam, xuddi sur' iching, nafis olib turing, degandek bo'lsaman. Til bilish hayotiy zaruratiga aylandi.

Safardan yma bir topganim ilta Sirtautes bilan tanishuv bo'ldi. Amerikalik olimanining o'zbek xalqiga, o'zbek tiliga bo'lgan mehri va burmati ko'nglimga hayajon soldi, qo'limga qakam turqazdi. Ilta xonim ham, olimaga bag'ishlangan she'r ham men uchun aziz va qadrliidir.

## DURANGGA ROZIMISIZ, GROSSMEYSTER?

Toshkent - Siet do'stlik jamiyatining Amerika temondosi raisdeshi dilbar, dilkash Karolina xonim bizga hamma sharoitni muhayyo qilib berdi. Qayerga borsak, kimni, qay mazsil-makonni suvratga ol-

Dil tubiga che'kkan labezalar

moqchi bo'lsak yo'llimizda ko'k chiroqlar yonib turdi. Bunga sababschi bo'lgan mezbonimizning tinib-tinchimasiagi qatorida uning yana bir «fazilatsioni bildik. Raisdosh xonim shahar merining rafiqasi ekan. «Kerak bo'lса, butun shaharni oyoqqa tung'izamiz», — der edi ba'zan bizning «iloji bornikan» — degan kamtarona iltimosimizga javoban.

Bir kun Karolina bizni bir piyola choyga taklif qildi. Davramizda yana bir mehmon bo'lishini aytib, kimligi hozircha sir, deb qo'ydi. Oqshomda tayin qilingan joyga keldik. Ne ko'z bilan ko'rnaylikki, Karolina yoniда shaxmat bo'yicha jahon championi Anatoliy Karpov o'tirir edi. Mezbon bizlarni tanishtirdi.

— Anatoliy Yevgenovichni tanishtirib o'tirmang. Bu ulug' insomni dunyo taniydi, — degan so'zimizga Karpov kamtarinlik va hozirjavoblik bilan: «Ulug'lik sifati ko'proq sizlardek ijod ahliga yaroqshadi», — deya javob berdi.

— Shaxmat ijodning oliv maqomni, — deb suhabatga qo'shildi rejissorimiz. Gap o'z-o'zidan qovushib ketdi.

Anatoliy Karpovni oltmishinchi yillarning bosidan, u hali M. Botvinnik maktabiga qatnab yurganda, ustoz shaxmatchi yosh Tolyaning kela-jagiga umid bog'lab bashoratomuz so'zlar aytganda g'eyibona taniganman. Ko'p o'tmay u yosh shaxmatchilar o'rtasida jahon championi bo'ldi. O'shanda men o'n oti yoshli Anatoliyning gazeta muxbiri bilan suhabatini o'qib bayratga tusbgan edim. Muxburning, endigi rejalaringiz qanday, degan savoliga javob benb, charchadim, daram olaman, degani aqsimni lol etgan edi. Avvalo shaxmat o'ynab inson charchaydimi? So'ng shunday o'spirin yoshiba odam umuman charchashni biladimi? O'shanda biz Anatoliydan ikki barobar katta yoshdagilar tunni tengga ulab shaxmat surardik, charchash degan so'zning o'zi bizlarga notanish edi. Keyin angladimki,

biz o'yungan shaxmat bilan grossmeysterlar yuqori darajadagi musobaqada o'yusyndigan shaxmat o'tasiда yer bilan osmoncha farq bor ekan. Bunda shaxmat xursandchilik, zavq-shawq emas, ulkan jismoniy va nihiy zo'r-qishga olib keluvchi hayot-mamot jangi ekani bo'zim bilan ko'rib, his eigach o'spirim Anatoliyning aqliga tan berganman. O'z vujudingga qulq solib, o'z holatingni anglamoq, o'z imkoniyatingga to'g'ri va xolischa baho bera olish asl dorishmandlik ekan. O'sha eqshom unutilmash suhbat bo'ldi. O'n ikkinchi jahon championi bizga shaxmat tarixidan qiziq-qiziq voqealarni gapirib berdi, bizning safar maqsadimizni bilib, o'zining Toshkentda bo'lgan kuni larini esladi, shahrimizga, xalqimizga mehri va hurnatini bildirdi. Har bir qulay imkoniyatni qo'ldan chiqarmaydigan kimorejissorimiz championni tilidan ilintirib, shu so'zlarni film uchun qiytarib aytasiz, suvratga olamiz, deb turib oldi.

O'sha kuni Karpov Sietliga hordiq chiqarish uchun kelgan ekan. Garri Kasparov bilan bag'oyat uzosqa cho'zilgan yakkama-yakka olishuv uni toliqtirgan, bu sekin shaharga tinchlik istab, mustbirlarning savollariдан, suvratga oluvchi kameralardan qochib kelgan ekan. Shunga qaramay, itimosni qabul qildi. Yurtimizdan tushqariga ham yoyilgan o'zbek masolini eslab: «Yigitning so'zi o'lgancha bo'kizning shoxi sinsin», – dedi o'z ona tilida.

Ertasiga tayinlangan vaqtida championning apartamentiga keldik. Kiraverishdag'i katta mehnomonsona stoli ustida shaxmat desalarini sochilib yotardi. A. Karpov yuqori qrvindagi yotoqsonadan yo'l-yo'lakay galstugini to'g'rilagancha tushib keldi va salomlashish xonaning tartibatzligi uchun uzoq so'radi:

– Keyha shaxmatchi o'resqlarim kelishdi. Ertalabgacha dona surdi. Uzhamadim.

– Bu gap meni hayratga soldi. O'n olti yoshligida charchaganini bilgan yigitcha qirqdan oshib son-

sanoqsiz janglarni ko'rgan jahon championi endi tolish, o'zni ayash nimaligini bilmasa! Karpovning kulib turgan chehrasida horg'inlikdan, uyxusuz kecha charchog'idan asar ham yo'q edi.

Operatorimiz g'ayrat bilan ishga tushib ketdi. Bizning subbatimizni turli rakursda suvratga oldi. Sochilib yotgan shaxmat donzlarini terib, bir qo'l o'yinashimizni so'radi. A. Karpov yo'q demadi. Biz dona sura boshladik. Tasvirchi surstga tushirib bo'lganda endigina beshinchi yurishga kelgan edi. O'yinni davom ettilishdan ma'nno yo'qligini bilib, ulug' shaxmatchiga malol keltirmaslik uchun kamera tinishi bilan Karpovga qarab: «Durangga rozimisiz, grossmeyster?» - dedim. Anatoliy Yevgenyevich o'zining boladay mayin tovushi bilan: «Men durangga allaqachon roziman», - dedi.

Shunday qilib, AQShning Sieti shahrida jahon championi bilan yakkarma-yakka jang qilib, durangga erishganman, - deya gerdayib yursam bo'ladi. Hammasi bo'lib besh yurish bo'lganini esa aytishim shart emas.

## SHAFTOLI GULLAGANDA

Bir yili bahor chiroyli ketib, shaftolilar chunon ham galladiki, dala boylimiz dimog'ni erkaloqchi xushbo'y iforga to'lib ketdi. Qurab ko'zim quvondi, ko'nglim entikdi. Hamid Olimjonning mashhur satrari yodimga tushib yayradim:

*Noydalarni bezab g'unchalar,  
Tongda aytdi hayot otini.*

Yayradim-u, yana o'ylab qoldim. Noydalarni bugun bezab turgan g'unchalar eritaga g'o'ra tugsa, g'o'ra sharbatga to'lsa, ba nozik, mo'ri shox-u shoxchalarning holi nima kechadi? Bir vaqtlar safarda, olis mamlakatlarda o'z ko'zim bilan ko'rib kuzatgan bir ish yodimga tushdi. Suyama narvonni

shaftoli daraxtining tagiga qo'yib, novdalardagi gullarning bir qismini terib tashlashga tushdim. Uni ko'rgan bog' qo'shnim ohak che'kkasini paqirga tashlab yonimga keldi:

— Hormang, sheir, nima harakat?

— Shaftoli novdalariga rahmim kelib qoldi. Yukimi yengilashtirayagman.

— Bog'bon emassiz-da, — dedi u kelib, — mevali daraxtning guli terib tashlanganini qayerde ko'r-gansiz?

— Yaponiyada, Germaniyada ko'rganman, — dedim men ham bo'sh kelmay, — daraxtining guli necheg'lik siyak bo'lsa, nosil shuncha yirik, chichiyli bo'lar ekan.

— E, qiziq odam eksasiz, siz aytagan maenlakotlarda mevali daraxt taqchil bo'ladi. Yuzta odamga bir tupdan to'g'ri kelgandan keyin atrofida uymalashish yetishadi-da. Bizning yurtimiz o'zi bog'dan iborat bo'lsa, qaysi erinnagan sart novdalardan gul chilpiydi? Umu yetmaydi-ku, — dedi qo'shnim.

— Bu yilgi gallarning ko'pligini ko'ryapsizmi? Hammasi meva tugsa shaftoli tagi bilan sinib tushadi-ku! — desam qo'shnim yana bilimdonlik qildi:

— Shaftoli yetilguncha hali butun bahor-u yoz bor. Gul-u g'o'nuning ortiqchasi o'zi to'kiladi. Xudoyim yomg'ir bilan shumelni bekorga bermagan. Qolaversa, ota-bebobdan qolgan tirkovich bor. Sizni qurang-u... Men bo'lam, yangam shaftoli gulidan chuchvara furgmoqchilar deb o'ylatman. Bo'ldi, pastga tushing, qo'shni, ota-bebob qilmagan ishga qo'llurma, deydiilar. Yakshanba bekor o'tmasin. Uch-to'ri qo'll shaxmat suraylik.

Bog' qo'shnim nozik joydan tutdi. Zavq bilan boshlagan ishindan hech narsa qaytara olmasdi. Shaxmat o'rtaga tushgach, bo'shashdim-qoldim.

Shaftoli gulini terishga qaytib vagtim ham, hafsalarni ham bo'lmadi. O'sha yili mevular g'o'taligidayosq shoxlar sindi, tirkovich qo'yilib

Dil tubiga cho'kkal iahzalar

sinmay qolgan shoxlarda ham meva bo'lmadi. G'eo'salarga sharbat yeskazib berolmagan shaftoli daraxtining aftodaligi qator-qator egizaklariga suti yetmay qolgan bechora onani eslatar edi.

O'sha zoye ketgan, armenli yakshanbani o'ylab hezirgacha afsus chekarmen. O'shanda qat'iyatlroq bo'lib, boshlagan ishimni qilib qo'yganimda, balki mening bog'inda har biri naqd choynakdek shaftolilar yetilib qo'shnilarimi mehmon qillardim, hanmani qoyil qoldirardim. Balki... yana kim biladi, deysiz. Axir men bog'ben emasman. Harqalay, bu voqani davralarda hikoya qilsam, ko'plar maroq bilan tinglashadi, kulishadi, lekin birovning bahorda mevali daraxtdan gul chilpiganini ko'rsadim, eshitmadim.

Yevropa supermarketlarida ko'rib havas qilganim sarkil mevalar endi Oloy bozoriga ham, Eski Jo'vega ham yetib keldi. Lekin ularning ko'pi Beshariqdan yoki Haassboydan emas, olis Eroden dan kelgan. O'zimizning mazaliroq va foydaliroq jaydari olimmamizdan ko'ra o'sha dasturxonabop «kelgindi» olmalar besh-o'n barobar qadrliroq, qimmatroq...

Mening bu yozganlarim ko'ngil kechimmalari, xelos. Biz bog'bonga meva yetishtirish, bahorda gul chilpish, qishda yaxob berishni o'rgatsak, bog'bon bizga she'r yozishni o'rgatishi kerak bo'ladi. Rizamat otadek piri komil, Mahmud Mirzayevdek mashhur akademiklarni yetishtirgan bog'bon xalqimiz bor. Dunyoga nomi ketgan Shreder nomli ilmiy tekshirish institutimiz, unda qilni qirq yoradigan olimlarimiz bor. Zeroki, gap shaftoli guli ustida ham emas, balki yuri bog'lariga, har bir gul-a daraxtga mehr-muhabbat haqidadir. Bog' uchun quyesh harorati barobarida inson yuraginiň tafti ham kerak.

*Mulki borliq ichra bir mahal  
Ka'riketgina odam yaratgan.  
Bermog uchun dunyoga sayqal.  
Odam aru odam yaratgan.*

Shuvdas beri inson tinsayin  
 Shu yer azru ter to'har inson.  
 Xerai go'zal qilgani naysi  
 Go'zal bo'lar o'ti ham inson.

Vatanimizda mehmox bo'lga yaponiyalik depumatning bir so'zi yodimda qolgan: «Yigirmanchi asrda texnikasi boy mamlikatlar quadratli bo'ldi, yigirma birlinchchi asrda oziq-evqat sanusi rivoj topgan yurtlarning omadi keladi. Negaki, kompyuterini inson yillarda bir yangilasa, dasurzani har kuni uch mahal yangilaydi. Sizning quyoshli, quruq iqlimingizda etishadigan shifobaxsh, mazali meva ham, chorva mahsuleti ham dunyoda yo'q. Uch kungina yurtingizda turdim-a dunyoga o'zbek bo'llib kelmaganimiga afsuslandima, — degan edi u.

Yaponiyalik mehmoxning so'zini tinglab o'shanda bir tarix yodimga kelgan edi. Yigirmanchi asr boshlarida mashhur toshkentlik Orifso'jaboy yurak xastaligini davolash uchun Farangistonga — u payt Fransiyani va butun Yevropani shunday astashardi — borgan ekan. Dunyoga nomi ketgan doktorlar uni ko'rib, tekshirib, katta pal evaziga zar qog'ozga o'reg'lik bir qutichada doni berishibdi. Dorining juda usoq mamlikotdan olib kelingani va bag'oyat foydali ekanini sittishibdi. Orifso'jaboy dorini ochib ko'rsa, o'zimizning jaydari turshak ekan.

U hayron be'lib, bu meva bizning bog'larimizda to'kilib yotadi-ka, desa, doktorlar, shunday yurtda yashar ekansiz, Farangistonda sizga nima bor, deyishgan ekan.

Bu — eklas mashhur bo'lgan, ona yurt qadrini ulug'lovchi ibratli hikoya. Darhaqiqat, beqiyos imkoniyatlar vatanida yashaymiz. Tiloga bergisiz yerimiz, iqlimimiz bor. Yer-sav o'zimizniki, Vatan o'zimizniki. Buzgi barcha imkoniyat berilgan, barcha yo'llar ochiq, Ozroq kuyunchaklik bo'lsa bas...

Dil ubiga cho'kkam lahzalar

Vaqt kelarki, Mashhad bozorini Parkentning uzoq mi, Parij supermarketlarini Quvanning anori, Pekin yarmarkalarini Sirdaryoning qovuni bosib ketar. O'shanday kunlarni, inshoolloh ko'ramiz.

## POLIGLOTLAR

O'zbekistonlik olim va ijodkorlardan tuzilgan sayyohlik guruhi Kanada safarida edik. Kalgari universitetiga taklif etildik. Universitet talabalari bizni mashinalarida olib ketishdi. Anchagina yo'l ekan, mezonlarimiz biz bilan subbstiashmoqchi bo'lib murojaat qilishdi:

- Ingliz tilida gaplashsak bo'ladimmi?
- Bilmaymiz.
- Fransuz tilida-chi?
- Tushunmaymiz.
- Nemis tiliga qalaysizlar?
- O'rgatishmagan.

Italian, ispan tillarini biladigan ham ichimizda yo'q ekan. Xijolatimizning chek-chegarasi yo'q. Shunda bir qoraqalpoq do'stimiz bizni moqulay holatdan chiqardi. U bo'sh kelmay mezonlarni savolga tutdi:

- Ruscha bilasizmi?
- Yo'q.
- O'zbekchani-chi?
- Yo'q.
- Qoraqalpoq tiliga qalaysiz?
- ...
- Qozoqcha, qirg'izcha, turkmancha, ozarbayjoncha...

Xijolatik navbat mezonlarga keldi:

- Biz buncha ko'p til bilmaymiz, — dedi afsus bilan bir talaba va sherigiga qarab, — bular poliglotlar ekan! — deb qo'ydi.

## ANTIQA VIDOLASHUV

Nogahosiy ayilliq har qanday irodali insonni ham dovdirlasib qo'yari ekan.

Uzoq yillar gazetada ishlab bosmaxona shovqini va ko'rekkesularlar ichida qarigan kanutarin, halol inson olamdan o'tdi. Chig'atoy qabristoni o'sha kuni xaloyiq bilan to'lib ketdi. Marhumning farg'andilarini, eng yasqin odamlari qaterida uning hamkasb o'riog'i, qadrdon ulfati, yoshlikdan berga o'sgan do'sti ham tobut oldida borur edi. U hammatli jurnalistning ismini aytmay qo'yaqolay. Do'stidan kreyin bir-ilki yil orasida u ham feniy davnoysi tark etdi. Quvnosq, dilbar, hazilkash, so'zga chechan odam edi rahmatilik.

O'sha zamnen taomiliga ko'ra qibr ustida meeting bo'ldi va unga ham so'z berildi. Sho'rlikning kalovlanib qolgan qo'ygan qademalaridan ko'rinish turar edi. Qurang'i, ne-ne azjumanlarga raislik qilgan, ne-ne o'lariishlarda kosaguli bo'lgan, davralarni yashnatgan so'zamol bu inson motamda deduglanib qoldi, gapini yo'qoldi-qo'ydi. Uzuq-yuluq, peyintas-soyintar nuzqini u shunday tugatdi:

– Qabringda tinch yet, do'stim, sog' bo'l, omon bo'll!

Shunday dedi-yu belaxiyor aytib yuborgan so'zidan xijolat bo'lib yuzlari levullab ketdi. Xatoni joyida to'g'rilamoqchi bo'lib: – Do'stim, men uchun sen o'limgansan, doimio barhayotсан, – dedi va yana takror qildi, – sog' bo'l, omon bo'll!

Boshqa holat bo'lsa, bu gapga ichak urildi kulg'u, qabqaha ko'tarilishi shubhasiz edi. Lekin u payt subut saqlab turgan tumonat odam ichida bizar zot spiqs etib kulmadi. Zeroki, do'stini yo'qotib aql-u hushdan ham ayrigan bu mukhtaram insonning holati yig'lagulik edi.

Dil tubiga cho'kkas lishalar

## SOF O'ZBEKCHA SO'Z

Biz universitetning birinchi bosqichida tahlil olayotganimizda Ozod Sharafiddinov aspiranturani endigina tagatib, dars bera boshlagan yosh mudarris edi. Qardosh xalqlar adabiyotidan bir turkum ma'ruza o'qigan Ozod aka Nizomiy Ganjaviyning «Xusnay va Shirin» dostonidagi lavhani shunday bayon qilgan edi:

«Farhod schrli teshasi bilan tog'ni kesib, vodiyyga suv ochdi. Shirin erta tongda qarasa, tog'dan sharqirab suv oqib yotibdi. Malika hayrat va hayajon ichida : – Ничего себе! – деди».

Talabalik yillari paxta terimida qishgacha qolib ketardik. Yosar joyimiz molxona, to'shagimiz posol, tashnobimiz ochiq dala. Hammomni tushda ko'rardik. Arqon bilan qor to'kib paxta terish ham, ho'l to'nikalarini yonib ovqat tayyorlash ham azob edi.

Shunday vaqtarda Ozod aka yonimizda bo'lib ma'noli subbatlari bilan ruhiy madad berardi.

Bir kun domlamiz te'nka yorishni bizga o'rgatib qo'ymoqchi bo'lib qo'limizdan boltani oldilar. Ho'l o'rik g'o'lasi chayir ekan, ustozimizni qaynab qo'ydi. O'n karra bolta urib, o'n karra evlpt noberiro desalar ham to'nka yorilmadi. Shunda qishloqda o'sgan bir kursdoshimiz Ozod akadan boltani olib shunday degan edi:

– To'nka – to'nka-da, domla! Aqli yo'q. Bo'lmasa haramtingiz uchun ham yorilishi kerak edi. Bu ishni bizga qo'ying, siz evlpt noberiro deb turing, biz bolta uraylik. Ruschaga tilimiz kelishmazdi.

Bu ikki voqeani do'stilar davrasida aytib bersam, Ozod aka sira bo'yniga olmas, men bunday demagaman, hech qachon o'zbek tiliga o'rischani aralashtirgan emasman, aralashtirmayman! «Hu z xonem chyraq!» derdilar.

Domlating o'sha birinchi darsi-yu to'nka yorish voqeasi bilan so'nggi subbatimiz orasida roppa-

rossa elliç yıl vagt o'tibdi. Yarim asr! Butun boshli umur! Buncha ramon ichida oradagi yosh farqi ham umit bo'lar, ustoz-u shegird aksa-ukaga, hazilkash do'stlarga aylanib qolar ekan. Ozod akaning odamoxunligi, o'z nomiga munosib ozod muhit yaratma olg'anligi uchun biz ham o'zimizni ustoz oldida o'z nominienga yarasha erkin tutardik, ochiq-sochiq latifalar aytib, qatlis askiyalar qilishga jur'at etardik.

Lekin har qancha huzil-huzul qilmaylik, ustoz - ustoz maqomida bo'lgan. Men ham domlaning ruscha so'zlarini hikoya qilganda bir gapni qo'shardim:

— Mana elliç yilki, she'r yozsak Ozod Sharafiddinovga yoqarmikka, deya bayajonda yursemiz. Domlaning so'zları o'sha-o'sha: yoqsa, «muroro cebe», — deydilar, — yoqmasa, «wért noberpa! Lekin yoqgaranimizni e'tiborsiz qoldirish yo'q. «Shi n oson chuchas!»

*She'r yoqganda yurak so'zidan  
Borchu so'imi appon emasanz.  
Nozirlarning qarol ko'zidan,  
G'azablidan qo'reppan emasanz.  
Foyat she'r namona finib  
Ketilmasa, nom chiqsa beras,  
Untas Ozod Sharafiddinov  
Qoseng'ulan qo'reppamiz, zolas.*

Shunday ulkan iste'dod sohibi, haqgo'y inson, odil munaqqid bilan zamendosh bo'lqanidan faxlanaman.

## INDAMAS DIREKTORNING BASHORATLI HAZILI

Men universitetni tagtigan yilim Toshkentda yangi nashriyot ta'sis etilib, xodimilar turlash boshlangan edi. Tabiiyki, men ham hujjat topshirdim. Ishga ilinib olsam shaharda qolganim, bo'lmassa taqsimot bo'yicha Surxondaryoga maktab o'qituvchisi

bo'lib ketishim kerak. Toshkentdag'i adabiy mukhit, yozuvchilar uyushmasidagi uchrashuv va suhbatlar, Miriemir doimla seminaridan benasib qolishim tayin bo'ladi.

Belgilangan kun direktor huzuriga kirdim. Bo'yil ikki metrдан kam bo'Imagan daroz boshliq menga qayrilib ham qaramadi. Salomga alik ham, o'tirishga taklif ham, nega kelding, deb so'rash ham yo'q. Tek turgancha turibman. Agar taqdirim shu indamasi, g'o'daygan rahbarga bog'liq bo'Imaganda, Surxandaryo valimasi turmaganda, bor-cy, deb shartta burilib chiqib ketardim.

Hojisizlikdan tishni-tishga qo'yib turaverdim. Niloyat boshliq qog'ozdan bosh ko'tarib menga qaradi va ko'zi bilan stulga ishora qildi. O'tirdim. Yana jumlilik. Direktor bir dasta qalamni mushhtiда tutgancha menga tikilib o'tiribdi. O'sha damda ko'nglimga, bu odam soqov emasmikin, degan xayol ham keldi. Yo'g'-ey, dedim yana ichimda, shunday katta lavozimga soqovni o'tqazib qo'yishmas.

Jim o'tirsam o'tiraveradiganman. Noiloj o'zim gap boshladim. Universitetni bitirganim, ishga kirish niyatim borligini qisqa qilib aytidim. Yana jumlilik. She'rlar yozib turishimni, matbuotda, radioda qatnashib turishimni bildirdim. Sado yo'q. Yaqinda «Sharq yulduzi» jurnalida dostenim bosilganini, sheir Turob To'la gazetada katta maqola yozib meni maqtaganini ham aytidim. Nequlay bo'lsa ham aytishga majbur bo'ldim. Xayolimda, jim tursam, pattam qo'limga tegadigan. Nashriyotga kitob topshirganim, qizil diplomim, paxta terimida olgan faxriy yorlig'im ham qolmasdi, borimni dasturxoniga to'kdirim. Gapim bagadi. Hamon sukonat. Uzoq jumlilikdan so'ng rabbar shunday dedi: — Nashriyotga direktor tayinlangan. Bosh muharrir ham olganmiz. Sizga loyiq lavozimni qanday topamiz?

Shunda o'zinga ortiqcha baho berib yuborganimni sezdim. Menda syb yo'q edi. Boshliqning

indamay o'tirganini, karomatingni ko'rsat, nimaga qodirsan, degan ma'noda tushundim-dal.

— Menga eng kichik lavozimni bersangiz ham mayli. Ish o'rganishim kerak, — dedim endi biroz o'zimni bosib. Bu gap boshliqqa yoqdi shekilli, kichik muhammarr vazifasiga tayinlandim.

«Yosh gvardiyas» deb nosslangsa nashriyotning birinchi direktori Sotiboldi Yo'ldoshev bilan birga ishlab bu kamgap, yetti o'lchab, bir kesadigan, o'z ishliga pastta rabbarning ko'y facilatlarini bildim. Davrularning guli bo'lib o'tirganini ham ko'rdim. Nashriyot muhitini menga katta maktab bo'ldi. Yoshlar nashriyoti, so'ng badiiy adabiyot nashriyotida o'tiz yilga yaqin ishladi. Bosh muhammarr bo'ldim, direktor ham bo'ldim. Sotiboldi Yo'ldoshevning hazil bilan aytgan so'zlarini bashorat bo'lib chiqdi.

— O'shanda men ikki yo'l o'rtaida turgan edim. Bunday ishlazlarni urutib bo'ladimi?

## KO'NGILCHANLIK

Mintemir domla o'ta ko'ngilchan inson edilar. Bir kuni nashriyotning uzun yo'lagidan bir odam domlaga qarab, se, bo'misiz, sizni ham ko'radigan kun bor ekan-ku, deya quchoq ochib kela boshladi. Domla u bilan xush karyyorda qadrdo'slarcha quchoqlashib ko'rishdilar. Odan chaqchaqlashib bo'lishgach, yana quchoqlashib xayrlashdilar. Eshikkacha kuzatib qaytgach, bizdan so'radilar:

— U odam kim?

Hammaniz hayron bo'ldik:

— Ajabo, o'zingiz quchoqlashib ko'rishdingiz, uzoq otamlashdingiz. Qadrdeningiz emasmi?

— Umrimda ko'rgan bo'lam o'lay.

— Unda nega endi...

— Ay, bo'talarim-a! Uzoqdan quchoq ochib kelgan odamga, kimsan, deb bo'ladimi? Andisha bor-ku, o'zbekmiz-ku! — deya biroz sukul qilgach, qo'shib

qo'yodilar. – Bir elning bolalari tag'ishgan bo'ladihar. Oq'andir, inimdir, bitta qadrdonim ko'paysa ko'payishi-dal.

Yemishinchchi yillarda she'riyat ham, she'riyat otaxonni G'safar G'sloem noeni bilan stalgan nashriyot ham gurkiragan, lekin ana shu nashriyotning zyni she'riyat bo'limida ishlar pachava edi. Bo'limda Mirtemir domla, Abdulla Orif va kamina ishlar edik. Domla shogirdlardan, Abdullajon muxlislardan, men shaxmatdan ortimas edik. Qo'lyozmalar vaqtida topshirilmagan, korrekturalar o'qilmagan, plan bajariilmagan, hamma ish o'lida-jo'lida. Nashriyot direktori bir majlisda zarda bilan, she'riyat bo'limini yopish, tarqatish kerak, degan. O'shanda mashhur javob aytilgan edi:

- Tarqatish uchun avval yig'ish kerak. Uch xodimni to'plab bo'lmasa, qandsay tarqatasiz?
- To'playman, tarqataman, – dedi, direktor va aytganini qildi. Ya'ni uchovimizni o'z xonasida yig'di.

Ajoyib inson edi direktorimiz To'lgjin Rustamov. Mirtemir domla bilan tengdosh, eski qadrdon, sensirashib gaplashadigan o'rino edi.

Rahbar uzoq gapirdi. Partiya siyosati, davlat oldidagi mas'uliyat, nashriyot plani, intizom nima ekanini bizga yaoshilab uqtirdi. Mirtemir domla uning har gapiga bosh iring'ab ma'qillab o'tirdilar. Oxiri ma'lum bo'ldiki, biror so'z domlasining tom bitgan qulog'iga kirmabdi. Direktor:

- Mirtemir, qani ayt, gaplarim to'g'rimi? – deganda, ustoz:
- To'g'ri aytasani, To'lgjin, bibliotekani tartibga solmasa bo'lmaydi, – dedilar.

Tashqariga chiqqach, domlani o'runga oldik. Ustoz:

- O'lay agar, bir og'iz so'zini ham eshitmadim, uyat bo'ldi, juda uyat bo'ldi, – derdilar.

— Qattiqroq gapir, desangiz bo'lmasmadi, axir o'z qadirdonningiz-ku!

— Oshsam bo'lsa ham xo'jayimim. Rabarga indab bo'ladimi! Kattakonning gapini bo'lish odobdan emas, bo'talarim.

U vaqtarda nashriyotda masoh kam, genorar ko'p bo'lardi. Oylik va qalam haqi nishati birga o'n, birga yigirma edi. Bir Mirtemir domlaga aytardik:

— Biz yoshlar davlat xizmatini qilishga majburmiz. Six ulug' shoirsiz. Shu arzimas oylikning bahridan o'tib har yil bir kitob chiqarsangiz, ko'nglingiz xotirjam, qulog'ingiz tinch, cho'stingiz o'n karta baquvvat bo'ladidi-ku.

Domla javob berar edilar:

— Shundaylikka shunday. Lekin men ketaman, desam direktoring xafa bo'ladidi-da. Do'stimni ranjitsam bo'limas.

Biz ustozning bu so'zini direktorga aytib, domlaga russat bering, pensiya yoshidalar, charchaganlar, desak, direktor: — «Domlang o'zi so'namasa, ariza bermasa, men qanday qilib ket, deymans», — derdi.

Bu o'aro ko'ngilchanlik yana bir yilcha davom etti. So'ng oldiema-keyin uchurvlon ham so'z arizamiga ko'rniash nashriyotni tark etdik. Manas, Dante, Gyote moshkulimizni oson qildi. Uch buyuk shoh asar tarjimessini zimmamizga olib davlat xizmati bilan xayrashdik.

Direktorimiz qo'y so'yib xudoyi qilgan bo'lsa ajabmas.

### KECHIKKAN QAHQABA

Bu voqenga ham, qarangki, qirq yildan oshibdi. Yozuvchilar anjumanida sodir bo'lgani uchun u tezda tildan tilga, kitobdan kitobga ko'chib shuhurat topdi va eshitmagan odam deyarli qolmadı. Bilasizcharki, ziddilar to'qimaga usta bo'ladilar. Ritta rosi gapga o'nta yolg'oni qo'shib, oddiy voqenni

latifaga aylantirib hikoya qiladilar. Qiziq bo'lsin deb tappa-tuzuk insonlarni go'l, dalli-devona qilib tasvirlaydilar.

Aslida voqeа bunday bo'lgan:

Yozuvchilar uyushmasining yillik ijodiy hisobot yig'inida o'sha vaqtda yosh munaqqid bo'lgan Salehiddin Mamajonov yosh yozuvchi Yusuf Shomansurning «Qora murvarid» romanini tahlili qilib rosa po'stagini qoqdi. Yaroqsiz asarga chiqardi. Unga javoban Yusuf Shomansur so'z olib tanqidchini noxolislikda aybladi:

— Mamajonovning mena qasdi bor, — dedi u. — Uyushma bog'ida billiard o'ynab uning mazasini qochirgan edim. Alamini olyapti.

Zalda qahqaha ko'tarildi.

Majlisda o'tirgan Mirtemir domlaning qulog'i og'ir emasni, tanqidni ham, javobni ham eshitmadidi. U to yon atrofslagilardan kulgining sababini so'rab bilguncha Yusuf allaqachon gspini tugatib bo'lgan, minbarda akademik Vohid Zohidov ijodkorning zamox oldidagi, insoniyat oldidagi burchi to'g'risida chuqur falsafiy fikrlarni bayon qilib turar edi. Anjuman shshi ulkan faylasufning sehrli ovoziga mahalliyo bo'lib jum eshitardi.

Shu vaqt zalda birdaniga Mirtemir domlaning kuchli qahqahasi yangrab ketdi:

— Obbo tentag-ey, obbo jinnivo-yey! Topgan gapini ko'ring!

Domla zavqdan o'zini to'xtatolmas, minbarg'a qaramay kulishda davom etardi. Hamma hayrot. Akademik olim minbarda qotib qolgan. Uning ko'nglidan o'sha lahzada nimalar kechdi ekan?

Vaziyatni Nosir Fozikov yengillashtirdi.

— Domla o'tib ketgan gapga kalyapti. Yusuf Shomansurning javobini nash'a qildi.

Zalda yana kulgu ko'tarildi. Bu galgi qahqaha avvalgisidan ham qattiq va uzoq bo'ldi.

## BERLINGA QANCHÄ YÖ'L

1975-yilning yoz oyлari edi. «Faust» tarjimoni сifatida Germaniyaga boradиган bo'lдim. U замонда chet elga faqт Moskva orqali chiqilardi. Hozirgi Toshkent – Frankfurt, Toshkent – Parij reyslari tushimiiga ham kirmagan edi.

Poytaxting «Ukrainas» mehmonxonasi yo'laklarida kуни qanday o'tказishni bilмary u yoqdan bu yeqqa yurur edim. Erta ga Moskva – Berlin poyezdi bilan yo'lga chiqishimiz kerak. Gyote vatanini ko'rish ishtiyeqi ko'nglimga tinchlik bermaydi. Bunday payda kimgadir haysajonlaringni aytging keladi. Yolg'izlik azob beradi, vaqt o'tishi qiyin bo'ladi.

Shunday holatda mehmonxonada muhtaram adib Ibrohim Rahimni uchratib qoldim. Ibrohim aka hajviy jumallarning bosh muharrirlari yig'iniga kelgan ekanslar. O'sha kuni kechgacha sayr etib, suhbatleshdik.

Ko'pni ko'rgan adib, qariyb yarim astlik adabiy jarayon ichida yushab ijod qilgan, jahon urushining bushdar oxirigacha zabit nukuz bo'lib, jangovar muxbir bo'lib xizmat qilgan, necha bor ajal domidan emon chiqqan yozuvchining hikoyalari naqadar maroqligi edi.

Gap aylanib 60-yillarning o'ttasi, Ibrohim Rahim rahbarlik qilgan «Guliston» jurnalining eng gallagan vaqtlariiga borib taqildi.

– «Temur тасуқларини nashr etib dashnomolar eshitganim uchun zarmsha ham o'kimayman. Agar bu tabarruk asarni bosib chiqpa olmasam, o'zimni kechirmasdim, umr bo'yи viydonim azob chekardi, – dedi o'shanda Ibrohim Rahim.

Darhaqiqat, «Guliston» jurnalni u yillarda eng va shuurimizni tarbiyalagan, xalqimiz ko'ksini ko'targan nashr edi. Uning tahririylati ijodkor yoshlari uchun tabarruk dargoh hisoblanardi. Mening ham bir turkum g'azallarim, «O'zbegim» qasidasini shu

jurnalda bosilgan. Ayniqsa, Rasul Hamzatovning «Dog'istonim» asari ancha shov-shuvlarga sabab bo'lgandi. Jurnalning uch-to't sonida bosilgach, «yuqori»ning buyrug'i bilan to'xtatib qo'yildi. Milliy his uyg'otuvchi asarlarning turli elatlarga yoyilishi u zamon mafkurasiga zid edi. Egallab turgan kursisi aziz, joni shirin bo'lgan biror muharrir bunday ishga jur'at qilolmasdi.

— Fashistning o'qidan qo'rqnagan, mayda amal-doming do'qidan qo'rqnamanmi? — jasoratli muharriming bu so'zhari qulog'imidan ketmeydi

Hamma gazeta-jurnal rahbariyati, redaktor, redkollegiya deb atalganda birligina «Guliston»da muharrir, tahrir bay'ati deya yozilardi. Bu ham boshqalarning g'ashini keltirar, ochiq aytolmasalar-da pana-panadan, «bu nima oliftagarchilik» deb yurardilar.

Moskvadagi tasodifiy uchrashuv men uchun qismatisning sovg'asiday bo'lgan. O'shanda ko'nglimga tagib yurgan ko'p savollarimga javob olgandim. Oxirgi savolim shunday bo'ldi:

— Ertaga poyezd bilan Germaniyaga jo'nashimiz kerak, bilmaysizmi, Berlinga necha kunlik yo'll?

Jangchi adib javob berdi: — Poyezd qancha yurishini bilmayman, lekin biz borganda Berlin to't yillik yo'll edi...

2010

## YAXSHI NIYAT QILING, SHOIRLAR!

Inson tafsakkuri bu sirli olamning behisob mo'jizalarini kashf etib bo'lgan emas, balki hech qachon so'ngigacha kashf etolmas. Ba yorug' dunyo ochilmagan sirlari bilan ajib, hayratlidir. Sir bor yerda hayrat bor, hayrat bor yerda she'riyat bor.

She'riyatning sehri ham aslida sir. Inson tafsakkur bilan yetmagan manzillarga hissiyot bilan yetib borishi haqiqatga aylangan mo'jizadir. Balki

shundan shoirlarni avlyyoga o'shatishar va banda ozroqqina haqiqat bo'lsa ajab emas. Necha buyuk ijodkorlarning tarixiy bashoratlari rost chiqqan hamda bunga misollar juda ko'p. Nostradamus olamda yolg'iz emas. Ayniqsa, shoirlar o'z qismatlarini haqidagi hayratomuz bashoratlari satrlarni ko'p botganlar. Afsuski, bunday bashoratlarning aksari qazyg'uli, hatto fojalidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur:

«O'lganini yashchi bu nay» ellitsadan ar o'lmak yoshima,  
deya oh undi va qirq yetti yoshda olamdan ko'z yumi-

di.

Boborahim Mashrab:

«Chun, qo'lim shirkasi eyog 'lm bog 'lumog boyar emas.  
Men o'limga raxsizim, bas, furgalliyotgan emas, -

deya novali satrlar bitdi va Balxda dorga torildi.

Pushkin «Yevgeniy Onegin» she'riy romanida Onegin bilan shoir Lenskiy o'rtaсидаги дуслини, шеининг о'лимини тасвирлаган. Барисоли о'з qismatini oldindan ko'rgandek bashoratlji manzarani butun tafsiloti bilan chizib qo'ygan. Bu manzara bolalikdan taxavvurimiga o'maslib qolgan edi. Pushkinning Dantes kilan dueli o'tgas o'monsi borib ko'rganimda vujudim larzaga kelgan. Xayolimdagagi o'sha manzara qarshisida turardim...

«Men erda beshkadim, erda ketarmans». Bu so'zlarni yesgan shoir Lermontov yigirma yetti yoshida halok bo'ldi.

Furqat o'ziga ayrılıqni ravvo ko'rgandek ushibu taxallusni olmaganda balki umri yor-u diyor furqatida o'tmas, qabri olis Yorkentda qolmay, Muqimiy kabi ona shahri Qo'qonda muzqim yasharmidi...

«Kirlanib bitdim o'zin, dastroyni poklay olmadiwa, - dedi afsus bilan Abdulla To'qay. U ham syni yigit yoshida dunyeden ketdi.

Umri yosh xazon bo'lgan shoirlardan yana biri Sergey Yesenin. Uning satrlariga qaloq tuting:

*Biz borchamiz ketayotirmiz  
Halovallı sozin yurtlarga.  
Oh, mening ham farzatim nig 'iz.  
Otlantishim kerak saflarga.*

Ham sinfdosh, ham kursdosh do'stim, dilbar inson, nafis shoir Anvar Isroilov elliq beshga yetmagan yoshda hayotdan ketgan. Uning yigit yoshda bitgan satrlarini armon bilan eslayman:

*Oshiqqancha aylunar doron.  
Intiyorsiz biz ham shesharmiz.  
Shafolilolar guli naflarmon,  
Ajib bir tong xayrlasharmiz...*

Bu kabi bashoratga aylangan so'zlarni o'tmish shoirlarida ko'p uchratganman. Cho'lponda «Qu-yoshning narida toqas qillolmay yerga botdim-kao», degan satni o'qib, Usmon Nosir she'rlerida bamisoli vidolashuvdek hazin misralar ko'rib yuragim ozilgan. Bunday so'zlarni yozmagan bo'lsalar qani edi, deya o'kinganman. Shuning uchun ham sevimiли shoir ukam Muhammad Yusuf, «Rayhonga suyanib o'sib qolamana», deb yogganda umrimda bir bor unga, koyib emas suyib, bunday so'zlarni tilga olmaslikni aytgan edim.

Xalqimizda bir hikmat bor: «Yaxshi niyatga ham, umon niyatga ham farishchalar somins deydilar!» Men ijodkor do'stilarimga murojaat qilib aytgim keladi: Yaxshi niyat qiling, shoirlar! O'zingizga ham, yurtingizga ham omonlik tilang. Faqat tilabgina qolmay, yorug' kelajakka ishoning, ishonganda ham astoydil, bamisoli shoir Asqad Muxtorday qattiq ishoning:

*Umrim uzoq bo'lar,  
Sezib turar bo'ngil,  
Barakali bo'lar shuhkariz.*

*Kunuski che 'qo'shiga qarayman dashi,  
Men berunurman ungu tulfiyatiz...*

Mana bu - chin bashorat, exga bashorat, barcha shoirlarga o'mak va saboq bo'lgulik bashoratdir.

Darhuqiqat, Asqad Muxtor uzoq va barakali umr ko'rdi, o'limas asardar, ijodiy maktub, iste'dodli shogirdiar, ma'rifatli farzandlar qoldirdi, adabiyotning jonskuyari, tashkilotchisi, arbob'i va zahmatkashi bo'ldi va hamisha yonib yashadi..

### MERGANLIK MAKTABI

1963-yil Xorazm uchun omadli kelgan edi. Paxtadan misli ko'rilmagan bosil ko'tarib «Mash'al Xorazm» nomini olgan, mamlakatga doneg tuzagan edi. Dekabrming qorli, synzli kusularida viloyatning bosil baynanimda qutnashish uchun Yozuvchilar uyushmasi topshirig'iga ko'za (u vaqtlarda yozuvchilarga ham topshiriq berilardi) shoir Shuhrat, ungs haerroh va yordamchi bo'lib kamina Urganchga keldik. O'shanda men ilk bor taniqli adibga bo'lgan el hurnoti, muallilar mehrini ko'rgan, havas qilgan va ko'nglimda, kiroyi shoir bo'lsang Shuhrat aknay shoir bo'l, degan fikr kechgan edi.

Xoraznda bir xasta qolib ketdik. Tantanalar o'tgandan keyin ham muallilar Shuhrat akani Toshkentga yuborishmadı. Har ikuni ziyofat, she'rexilik, tengotar shirin suhbatlar...

Bizning bosh mezonimiz viloyat yozuvchilar uyushmasi rahbari, ovchi, shikor manzusida ko'p hikoyalari yuzgan Rahim Bekniyoz bir kun ertalab Shuhrat skaga qo'shog'iz miliq olib keldi. — Bugun orga chiqamiz, — dedi u, — ayni mavsumda keldingiz, o'rdaq, qashqaldoq, knaklik yog'ilib ketgan.

Eski avillisoni minib yo'lga chiodik. Shuhrat aka, Rahim Bekniyoz o'qiladigan, Erkin Samandar bilan men yig'ib qoplarga soladigan bo'ldik.

Dil hubiga che'klari latzslar

O'sha kechasi qor juda qalin yog'gan ekan. Tizzadan qor kechib yurim kun ov qidirdik.

O'rdak, qashqaldoq u yoqda tarsin, churq etgan chumchuq ham ko'riamadi. Shuhrat aka Rahim Bekniyoza hazil qildi: — «Yog'ilib ketdi deganing qor ekan-da?» Erkin Samandar ustozning hazilimi davom ettirdi: — Bizdan nima otding, deb so'rasalar, qorda odim otzik, deymiz.

Shunday qilib, bizlar uchun tushlik tayyorlangan viloyat mehnomonxonasiga och qorin va bo'sh qoplar bilan qaytdik.

Xorazmliklar mehnomonning ko'nglini olish uchun nimalar qilmaydilar! Ovimiz baroridan kelmaganimi esdan chiqarish uchun mezbonlar bir ajabtovur menganlik masobaqasini o'ylab topdilar. Ovdan tejalgan o'qlar bilan Ichkilikdan bo'shagan shishalarni otadigan bo'ldik. O'yin sharti shaki, kim o'n qadamdan shishani ursa, to'la bir qadah mukofot oladi.

Birinchi bo'lib menganlik mahoratini qirq yillik ovochi Rahim Bekniyozi ko'rsatadigan bo'ldi. Uzoq vaqt mo'ljalga oldi. Bir necha marta miltiqni tushirib, qo'llarini osmonga ko'tarib, ey Xudo, sharmanda qilma, deb pichirish duolar o'qidi. Niroyat, tepkini bosganda varanglagan ovez taraldi-yu, shisha o'midan qizirlamadi. Ovchi afsus-nadomatlar bilan chetga o'tdi. Qurangki, jang-jadallar ko'rjan, «Shinelli yillard» romanining muallifiga ham omad kulmadi. Shuhrat aka sovuqni aybdor qilib qo'l siltab uyga kirib ketdi. Navbat kaminiaga keldi. Umrimda miltiq tutmagan edim. Ko'zimni yumib tepkini besdim. «Tepki» deb bekorga aytillas ekan, qo'ndoqdan tepki yeb qerga yiqlidim. Lekin omadni qarangki, shisha chilparchin bo'ldi. Mezbonlar «uras» sadolari bilan meni tabrikladilar. Qarsaklar ostida qadahni bo'shardim. O'sha kuni g'alaba menda ketdi. Otgan o'qlarimning barchasi nishoniga tegdi. Nechanchi qadah meni qolatdi, eslolmayman.

Ertalab boshda og'riq, lekin ko'ngilda - q'oliblik-quvonchi bilan uyg'ondim. Nonushta vaqtida Shuhrat aka menga aytg'an so'zlar hali-hamon esimdan chiqmaydi: - Sedda bo'lmay qol. O'n qadamdan sochma o'q bilan shishani urish emas, urmaslik uchun funar kerak. Do'stilarimiz bizni xorsand qilish uchun harakat qilishdi. Omad keldi, deb yiqligancha ichasanmi?

Kechagi g'urur, ko'tariikilikdan asar ham qolmadi. O'zimning aldanib hammaga bulgi bo'lganim alam qildi. Rubiyatimdag'i o'zgarishni sezgan Shuhrat aka biroz yumshadi: - Bular-ku o'z do'stilarimiz. Hali seni maqtaydigan, yuzta-yuzta quyib beradigan, do'st bo'lib dashmanning ishlasi qiladigan oshnalarling ko'payadi. O'shanda bush-yor bo'l. Shuni bilib qo'yki, sheimi adeyi namom qiladigan narsa aballi-ballisi bilan qarsak bo'ladi.

Bu achchiq saboq umrim yo'llarida menga usqatdi.

Ijodkor degan nomga munosib hayot kechirgan, yurish-nurishda ham, odamgarchilikda ham hammasimizga namuna bo'lolgan ustozning o'gitlarini minnatkerlik bilan eslayman.

## SHIFOKOR SO'ZINING QUDRATI

1988-yil men uchun anchayin og'ir keldi. Yozda yopishgan dard to qishqacha vujudimni iskanjaga olib ko'p azob berdi. Har narsuning chalasi dardisar bo'ladi, degan gap bor. Mullaning ham, konseling ham, shoimining ham, hatto dardning, isltmaning ham chalasi yomon ekas. Har kun kechga tomon andakkina ko'tarilgan harorat badanni juspiktirib, sillani quritadi. Doktorlar hafta sari konsilium qiladilar, ko'rib, tekshirib, maslahatlashib, bir fikrga kelolmay tarqaladilar. Bunday vaqtida betobning ruhiy holatini tasavvur qilish qiyin emas. Eng irodali, ishonchi mustahkam odam ham shoxsa kelmas: yurti o'ylab qoladi.

O'shanday dardli, mahzun kundarda qorong'u ko'nglimni chiroqday yoritgan shaxs – do'stim, birodarim, dilbar va mehrli inson, o'z kasbinining allomasi doktor Erkin Qosimov edi.

O'sha vaqtida hukumat shifoxonasining bosh hakimi bo'lgan atoqli shifokor har kun yonimda bo'sib, antiqa hikoya va latifalar aytib ko'nglimni ko'targan, menga sabr-bardosh, qat'iyat va ishonch bag'ishlagandi.

O'shanda men buyuk bobomiz Ibn Sino aytgan, tabobatning uch quroli ichida birinchi qilib sanagan So'zning qudratini yana bir bor anglaganman. Boshimdan og'ir xayollar ko'tarilgan. Rejalashtirgan ishlarimni ishonch bilan davom etirganman. Ko'hna Toshkentning jahon shaharları bilan do'stlik, madaniy aloqalari haqida «Toshkent darvozalaris» nomli hujjati film ssenariysini boshlab qo'ygan edim. Holsizlikka so'z bermay, uni yozib tugatdim. Qarangki, isitma ham tushdi.

Nihoyat shifokor birodarim ishontirib aytgan umidbaossh kundar keldi. Atoqli doktorlarning yurim yilga cho'zilgan mashvarati nihoyaga yetdi. Ya'ni har biri o'zi bir olam hisoblangan, umumiyl til topishi o'lindan qiyin bo'lgan allomalar kaminanining baxtiga nihoyat bir fikrdan to'xtadilar. Tashxis aniq bo'ldi. O't qopimi olib tashlash uchun amaliyat kuni belgilandi.

Lekin o'sha kunlari men yozib tagatgan ssenariy bo'yicha ish boshlanib ketgan, Toshkent – Sietl do'stlik aloqalari to'g'risida film olish uchun Qo'shma Shtatlarga safar vaqtı tayinlab qo'yilgan edi.

Bu gapni bosh shifokorga aytdim. Erkin Qosimov yana konsilium chaqirdi. Akademiklar R. A. Kassanovich, V. Vohidov, A. Ubaydullayev, A. Rahimjonov, K.Ye'ldoshev va boshqalar maslahatga to'plandilar. Amaliyat kechiktiriladiigan, men safarga borib keladigan bo'ldim. Erkin aka mammun jilmayib menga qaradi:

- Xursandmisiz, shoir? Mana tashxis ham aniq, sahar ham tayin bo'ldi. Endi bizga shifixonada yozilgan yangi she'riardan o'qib bering.

- Bu yerda she'r yezolmadim. Boshqa ish bilan band bo'ldim, - deb qulmoqchi bo'ldim. Otdekhim turgan yerini kesadijan odam edi. To'rt qator she'r o'qimasangiz javob yo'q, deb turib oldi.

O'shanda dekabe oyi edi. Qish bo'lsa ham quyosh nur sochib tarar, tashqaprida deraza raxiga qo'ng'un chumchuqlar chирqillashar edi. Ularning yoyrab sayrab yurishi bilan mening dardli holatim o'rtasidagi ziddiyat ko'nglimda to'rt satr she'rga aylandi va o'sha onda tug'ilgan haxil badihani o'qidim:

*Chumchuqlar denvazoda,  
Chumchuqlarga matxa-da/  
Og'riyadigan bushi yo'q,  
O't qopida bushi yo'q.*

Kulgi bo'ldi. O'sha kundan bu mutoyiba Erkin Qosimov tilidan elga tarqalib o'z-o'zidan mashhur bo'lib ketdi.

Hech qayerda e'lon etilmagan, kitoblarimiga kirmagan, matbu yuzini ko'mmagan bu jo'ngina badhiha mana, yigirma yil o'tsa ham hali-harmon davralarda esga olinadi. Bunga beris yana o'sha So'z qudrat, muhtaram shifkokorim uchun tug'ma fuzilat bo'lgan dilbarlik, insonni o'ziga torta belish, mahalliyo qilib qo'yish san'ati bo'lgan.

Bunday insonlar dunyoga kam keladi.

\* \* \*

Necha-necha xastalarga malham bo'lgan shifkokor o'z boshiga kelgan dard qoshida najotsiz qolar ekan.

2007-yilning navbahorida, kurtaklar hayot qo'shig'ini aytib turgan onlarda Erkin Qosimov hayotdan ko'z yundi. Bu oltinchi mart kuni edi.

Uch kun avval o'z ahvolini bilgan shifkokor menga suzi-rizolik so'zlarini aytib, endi bolalarimni sizga

topshirdim, deganda, men bor irodamni te'plab qudamni ovutmoqchi bo'ldim:

— Unday demang, hali ko'p yashaysiz...

Shunday dedim-u aytgan so'zimdan o'zin uyaldim. Oddiy bemorni yupatish, ishontirish mumkin. Lekin o'z ichida kechayotgan xastalikning barcha jarayonlarini bilib, sezib turgan ulkan shifokorni yolg'on so'z bilan ovutib taskin berib bo'ladimi?..

Erkin aka asta bosh chayqab qo'limni qisdi va boshqa so'z aytmadı.

O'sha daorda men o'limning haqligini anglagan imoni domishmand, irodasi mustahkam inson — umr bo'yи yonib nur taratgan, endi so'nayotgan sham qoshida turardim. Biz sukul ichida vidolashar edik. Xayolimda buyuk hakimeining satrlari aylanardi:

*Jahonda qolmadi men bilmagan farr  
Ne mushkib bo'lsa yangdim domish ilan.  
Va lekin bu o'lim odlik tegunni  
Kecholmasdan o'tir bo'ldim jahondan.  
Avido, azizim, qasradonim...*

## ODAM TANISH ILMI

Ikki notanish o'zbek uchrashib qolsa, tanishuvni ism, nasl-u masab so'rashdan, kasb-kor surishtirishdan boshlamaydi. Avvalo, «birodar, qayerdansize», deb so'raydi. Manzil ayon bo'lгach, o'sha yerlik tanishbilishlar sanaladi, falonchini taniysizmi, pistonchini bilasizmi, degan savol-javobga o'tiladi. Odam tanish xalqimiz qonida bor bo'lgan azaliy xususiyat. Ikki notanish o'zbekning albatta uchinchi unnumiy tanishi chiqadi. So'rab-so'rab topilgan o'sha uchinchi odam ikki begonani g'oyibona tanishtiradi. Ana shundan so'ng kasb-kor, ism-u a'molga navbat keladi.

1982-yilning dekabrida men yurak xastaligi bilan shifoxonaga tushib qoldim. Qo'shei palatada davolanayotgan Oqqa'rg'onlik bir shifokor, adabi-

yot mualisi bo'lgan dilber insos mendan xabar olib turdi, ko'nglimni ko'tarib xastalikni yengishimga yordam berdi. Doktorlar turishga ijozat bergach, hovliida birga sayt qiladigan bo'ldik. Bu fikri teran, dunyoqarashi keng, bosiq-vazmin, meheli insosning subbotini sog'indig'an bo'ldim. Biz go'yoki shifoxona bog'ini emas, clamci sayt qilardik. Tarix, falsafa, siyosat, madaniyat – qaysi mavzuda so'z bormasini hamshabtim berilib bahaga kirishar, har masala usida o'zining aynicha, mustaqil fikrini bayon qilardi.

Men necha bor, ism-familyyangiz nima, qaysi tibbiy dargohda, qanday vazifada ishlaysiz, deb so'rmasoqchi bo'ldim, lekin tilim bormadi. U kishi meni tanib, ismimni aytib chaqrsa-ya, men o'zingiz kimsiz, deb se'rasam odobdan bo'larmidi? Xalqimizda shafokerlarga «do'stir» deb murojaat qilish odati bor. Men ham o'zimga qadirdon bo'lib qolgan bu suhiatam zetni «do'stir» deb yuraverdim. Odobdan tanishib olishning qiley mavridi kelar, deya ortiqcha savol-javobni keyinga go'ydim. Ko'p vaqt o'tmay shunday fursat keldi. Kelganda ham meni lol-u hayron qilib, tayvanga tuyantirib keldi.

O'sha yil era sovuq tushib, paxta yig'im-terimi kechikkun, dekabr oyida ham olti millionlik hossil uchun kurash davom etardi. Dalada paxta qolmag'an, qor-yong'ir aralash yog'ib turgan vaqtida ham hasharchi talabalar o'qisiga qaytmagan, sovuq molzonaleda quv-quv yo'talib o'tirishardi. Hatto isitmaliab yetganga ham qaytish uchun russat yo'q. O'lsa ham dalada o'sham degan oly buyraqqa usosan va katta rishberring spaxta ham front, jang esa qurbonsiz bo'lmasydin degan shikmatli so'ziga muvofiq chanoqlarda tola ham qolmag'an qopqora dalaga, qee, yong'ir ostida ustlariga plastik yopinchiqlar koydirilib yuz minglab hasharchi yosililar haydab chiqilardi. Bunday soxta fidoyilik kimga kerak, bu azob-uqubdan maqsad nima, deb so'reydigan odam yo'q edi.

Dil tubiga che'kkan laskalar

Qishning shunday ayozi kunlarida ikkinchi kurs tolibasi bo'lgan qizim Nozimani og'ir xasta ahvolda to'g'ri paxta dalasidan shifoxonaga olib kelishdi. Tashxis mursakknab, vaqt tig'iz, zudlik bilan professor Bahromovni chaqirish va maxsus sxema asosida dari tayyorlab qon quyish zarur edi. Professorni yarim kun izlab topishholmadi. Kechga tomon usning betob ekani, davolanayotgani aniqlandi. Faqat ertasiga ertalab professor bir talay dokterlar bilan kasal qizimiz yotgan xonaga kirib keldi. Ne ko'z bilan ko'rayki, bir kecha-kurschuz izlangan shifokor o'zimning o'sha qadrdon hamsuhbatim, shifoxonada eshigim eshigiga ro'baro' bo'lgan muhtaram inson edi...

Saidjalol Mahenudovich Bahromov o'shanda to'ng'ich qizimi ajalning changalidan qutqarib qolgandi. Yillar o'tib qadrdonligimiz do'stlikka, do'stlik qudalik-qarindoshlikka aylandi. O'trancha qizim u mehribon shifokor xonasidona kelin bo'lib bordi.

Bu orada professor Bahromov institut direktori, boshqarma boshlig'i, Sog'liqni saqlash ministri lavozimlarida ishladi. Bugunda bir necha tibbiy akademiyalarining a'zosi, tibbiyot fanining tuniqli arboblari safidan munosib joy olgan dovrugli olimdir.

Bizning nabiralarimiz ulg'ayib, imustaqil hayot qu'rish bosqichiiga yetdilar. Lekin nazarimda biz hamon o'sha qirq olti, qirq sakkiz yoshdamiz, uchrashib qolsak suhbatimiz, bahsimiz ado bo'lmaydi.

O'ilaviy davrada o'sha yigirma olti yil avvalgi tanishuvni xotirlab kutilishamiz, bolalarimizga so'zlab, ularni odam tanish ilmini egallashga, bu hayotiy zarurat ekanini anglashga chaqiramiz.

Qarangki, yetmishning marrasini ham egallab qo'yibmiz. Shu munosabat bilan do'stimga aytadigan so'zin shu:

*Shukrim, do'lq 'ali yo'llardan borib,  
Bu abod hunlarga yesdik al'amon.*

*Biz shunday yuhaqdik:  
Etilishni qarib,  
Temsiliga kiroganda bo'ylik nazoratim.*

## SODDALIK

Sodda odam qaroqchidan yomon bo'ladi, desalar avvallari yeqa ushlardim. Ajabo, go'lligidan deimo chuv tushadigan, boshqalarga yem bo'ladigan sodda odam-ku, uning nimasi qaroqchi, desdim! Soddalik bois o'zim bir sho'rlikni o'lar holga keltirib qo'yganimdan so'ng bu hikmatning tagiga yetdim. Voqea shunday bo'lgan edi:

1971-yili «Moskvicha» sotib oldim. U zamonda avtomashinalik «bo'yvachcha»-lar kam, Kattagina maballamizga birlinchi yengil mashina kirdi. Shodligim chek-u chegarasiz. Bir yoqda yozib qo'ygan komediym hamma teatrliarda ushuktsiz ijro etmish, qalam haqi selday eqib turipti. Ish joyim – uydagi ijodxonam. Nashriyotdan «o'z arizanga ko'ras ketganim, she'rlarim badarg'a bo'lganini, ya'ni shu «arzimas» savdolarni demasa, mendan bastili odam yo'q. Tagimda g'ildirak, to'rt tononim qiba. Bu yon Samarcand-u Buxoro, bu yon Farg'ona-ya Andijon-a O'sh. Goh Chorvoqda, goh Zominda, goh Issiqko'ldaman. Olibang yoningda bo'lsa mashina ham xonadan bo'lar ekan. Haydovchilik mahoratini so'ramang. Faqat oldinga qarab haydash bor. Hatto kapotni ochib qarash yo'q... Shu zayil yurim yil davr-e davron surgach, bir kun shaharning halqa yo'llida mashina taqqi to'xtadi. Yordamga kelgan haydovchilar ko'p urindilar. Mashina o't olmadi. Oxir bir yek mashinasiga sudratib ustaxonaga olib bondik. Usta motorni ochib, «korzina» ketibdi, almashirish kerak, dedi.

Koshki edi, men mashina sotib olmagan bo'lam, koshki edi u baxilib, «korzinasi» ishdan chiqmagan

Dil tubiga che'kkani lakezak!

bo'lsa-yu, men «korzina» izlab avtomagazinga bormagan bo'lsam.

U zamonda kerakli narsalar hammasi noyob edi. Iltimossiz na durust kiyim, na mebel yo gilam olish mumkin edi. Hatto o'zimizdan chiqadigan zilas, chin-ni idishlar ham anqoning urug'i bo'lardi.

Avtomagazin direktori yo'q ekan, xushbichim, silliq yuzli o'rinnbosarning yoniga kirib, o'zimni tanishtirdim. U yuksak haramat va tavoze ko'rsatib choy uzatdi, ko'p shirin so'zlar aytdi. Lekin iltimosiga kelganda, «korzina»ning ko'p vaqtidan beri do'konda yo'qligini, o'zining tug'ishgan ukasiga ham topib berolmay xijolat bo'lganini so'zlab meni odob bilan eshikkacha kuzatdi.

Tashqariga chiqib, qayoqqa borishni bilmay hayron bo'lib tursam, yonimga «Zaporojes» kelib to'xtadi. Nogironlarga moshashtirilgan mashina ruvida o'tirgan so'tagina rus kishi menga qarab: «Ей что надо», dedi. Men savolga javob qilmadim. Ayiganim bilan topib berarmidi? Magazin rahbari o'zi qidirib yungan «korzina» sen cho'loqda nima qilsin, – degan gap ko'nglimidan o'tdi. Cho'loq kishi meni garang deb o'yldi shekilli, takroqladi: «Смысль, что надо?» Men parvosiz: «Korzina» dedim-u teskari qaradim. Cho'loq «тридцать рублей», – dedi. Men o'z qulog'imga ishonmay, undan nima deding, qaytar, deya so'radi. O'sha onda o'ttiz so'm u yodda tur-sin, agar yangi motor olaqol, ming so'm bo'ladi, desa oladigan holatdaman. Nogiron mening bautat aralash bergen savollimni o'zicha tushundi: «Ладно, двадцать пять», – dedi. Men darhol yonimdan pul chiqardim: «Давай!» U hozir olib kelaman, deb mashinasi ni oeqaga qaytardi. Shu lahma xayolimga bir fikr kelib uni to'xtadim. Mabodo ikkita topiladimi, deb so'radi. U indamay mashinani ucharib ketdi va o'n daqiqada ikkita «korzina» qo'llimga tegdi. Su-yuni ketganimdan ayigan pulini ortig'i bilan berib, direktor o'rinnbosarning xonasiga yugardim: «Онадни

qarang, — dedim hayujes ichida, — qidirgan narsamiz topilib qoldi. Ulangiyeza ham oldim. Men dan esdalik. Kitob yozib berishga qarzdormana, — dedim.

O'rinxbosar suyunar deb o'ylasam, u loladek qizarib ketdi. Peshonasiqa marjon-marjon ter chiqdi. O'shamda men o'z xatoyimni engladim. Uni sevintiraman deb soqev qilib qo'yibman. Sodhalik qurxin.

Keyin bilsam, nayob batkovchi qismlar avtomagazining eboshida shapkasi, yelkasida pagoni bilan keler ekan. Buning ma'nosi shuki, «korzina» davlat narxida sakkiz so'm bo'lsa, qo'ldan qo'lga o'tib do'konga o'n besh so'mga keler va peshtaxta ostidan yigirmaga solilarkan. Uddaburon vositachilarning qo'ldan o'tib bizga o'shabash oddiy bandalarga o'z asl bahosidan uch karra semirib keler ekan. Shu bir parcha temir gardishda yuzlab «sahmatkashon»ning risqi borligini men sodda qayeqdan bilay? Qayoden bilayki, do'kon rahbari shoirdan «shapka» ololmaydi, ashapkassiz berolmaydi.

Biz boshdan kechirgan kunlar hozirgi yoshlarga ertak bo'lib tuyular. Endi «defisis» degan so'z arxivga tushib ketdi. Hech kim hech kimdan hech narsani iltimos qilib topmaydi. Pul bo'lsa hamma narsa bor. To'g'ri, bahosi zahardakkino, so'rovchisi insolikgina, oluvchisi kamxarjiginasidir. Lekin hamma narsa bor. Do'konlarda navbatga turish yo'q, nomardlarga bosh egib borish yo'q. Shunga ming-ming shukr.

Dol takiga cho'ikan lishzar

### TO'YONA

Elda nimaki urf bo'lsa, uning tagida yaxshi niyat yetadi. To'yona ham aslida egeg marosimga tolisani illoq qo'shiladigan bissa, to'y egasiga beg'anaz yordam tarzida paydo bo'lgan. Lekin bu odal bora-bora norasmiy oldi-bendiga, majburlik beriladigan qarzga aylardi. Qarz bo'lganda ham hech bir omonat kassa to'lamaydigan foizli qarz bo'ldi-qoldi.

To'qsoninchi yillarda hozirgidek restoranlarda to'y qilish urf bo'lmasan, barcha marosimlar xonadonlarda o'tar edi. Yozda kunduzi soya-salqin yer tanqis, oshlar faqat erta tengda berilardi. Biz ham qiz uzatganda el udumini qilib rahorda osh berdik. Yaqin qarindeshlar, do'st-u qadrdoşlar hali kun chiqmay kelib ko'chani to'ldirib qo'l qevushtirib turdilar, ya'ni xizmatda bo'ldilar. Ular orasida albatta O'tkir Hoshimov ham bor edi. U hammadan erta kelib go'zal fabrik so'zları bilan cho'ntagimga ikkita yuztalikni solib qo'ydi. U zamonda bu o'rasha ikki oylik maoshga teng katta pal edi. Mehribonlikning ma'nosini darrov tushundim. O'sha kezlarda O'tkirjon o'g'li Farruxni unashdirib qo'ygan, to'y yaqin, ya'niki to'yona o'z egasiga obola fug'ib qaytishi kerak edi. Peshonam tirishdi-yu, udum ekan, na iloj, yaxshilikka qaytaray, deb qabul qilib oldim.

Ijodkomi xasis degan bekorming beshtasini aytibdi. Ijod ahli saxiy va bag'ri keng bo'ladi. Lekin ularga qalam haqi beruvchilar xasis.

To'rt varaqqa sig'adigan gapni bir yozuvchi katta kinteb qilib yozadi, uning oshig'i olchi. Boshqa yozuvchi ikki jumlada ta'sirliroq qilib aytadi-qo'yadi. Shu sabab kesasi oqarmaydi. Gonorur hajmiga qarab to'lanadi-da.

Bir shoir aytibdi:

*Kavirkardon o'zga xassiman,  
Pulga emas, so'zga xassiman.*

Buni eshitgan boshqa shoir, battar bo'l, debdi. O'tkir Hoshimov ham so'zga xasis san'atkor. Battar bo'lzin.

Shunday qilib, ertalab to'yona berib qo'ygan O'tkirjon oqshomga nikoh bazmiga xotini O'lmasxon bilan qo'liglashib boyvachchalardek g'oz kirib keldi. Men O'lmasxon bilan so'rashib O'tkirga e'tibor qilmadim. O'tirib fotiha qilgach:

— O'tkirjon, — dedim astoydil ranjiga changda, — ertalabki oshda ko'rinnadingiz?

De'stimming rangida qon qolmadi. Shu damda ko'nglidan nima kechganai menqa ayon edi. Gap sahargi uyguning harem bo'lganida emas, to'yoning «qulog'ini ushlabs ketganida edi. Shoirlar parisherlikda dong chiqargaslar. «Ertalab kelganim esida yo'q, to'yna bergenimni ham bilmagan bu devosa shoirlar», dedi O'tkirjonning bezovta ko'zları. Erining «madaniya» yo'qloviga orqa qilgan O'Imassxonning ham avvoysi o'zgardi.

— Hazilingiz qattiq-da, Erkin aka, — dedi O'tkir dam oqarib, dam qizarib, — keldim, ko'rishdik, yoninguza turdim!..

— Said Ahmad aka, Ozod akalar ham hayron bo'lishdi, — dedim men qovoq'inni uygancha, — mayli, sog'-salomat ekansiz, xavotir oldik-da..

O'tkir tuteqa boshladi:

— Ular bilan ham ko'rishdim. Nahotki esla-masangiz! Axir... o'rakning tagida ko'rishdik-ku.

To'yona o'rak tagida berilgan edi.

— Qaysi o'rak, qanaqa o'rak? — dedim o'zimni hayronlikka solib.

— Ana, anovi o'rak, — deb qo'lini urtagancha do'stim qotib qoldi.

Ertalab hovlini to'ldirib turgan o'rak yo'q edi.

Kechki baznga joy tuyyorlaganda juda tarvaqaylab ketgan, shira to'kadigan bu daraxting bahridan o'tgan edi.

O'tkir Hoshimov sarosimaga tushib qoldi, To'yoning yangona guvohi bo'lgan o'rak darasti yo'q!

Bizning bunday qattiq hazilni hisavvuriga sig'dirmagan O'Imassxon erini timmay maqilar edi:

— Odam bo'lmay o'ling xudoys! Meni sharmanda qildingiz! Ertalab qayosa bordingiz?

Box ustiga oldindan «pishtabs» qo'yilgan ustozlarimiz Said Ahmad aka, Ozod aka Sharafiddi-

nov, qadrdonlarimiz Nosir Fozilov, Umarali Normatov, Xudoyberdi To'xtaboyevlar birin-ketin kelib O'tkirdan hol so'rashar, ertalab ko'rinnagani uchun xavotir olganliklarini aytishar edi.

Men o'z vazifamni bajargach nari ketdim. Erxotin o'rtasida qanday gap bo'lganidan xabarim yo'q.

Ijodkorlar odanda tun sokinida ishlab, ertalab kech uyg'onadilar. «Ey mug'anniylar, Navoiy mast edi, kech uyg'osuro, deganda Hazmat ham ijod kayfini, O'llohga yaqinlik xumorini ifoda etgan bo'lsa ajab emas.

Tunni Arsh tog'ida uyg'oq o'tkazgan adibga nahorgi oshlarning malolati ayon. Qorong'i saharda to'yonaqaga yetib kelgan ijodkor birodarimning ahvelini boshqalar anglamasa ham men tushunaman. Do'stlikka, insoniy burchga, qolaversa o'zbekchilikka sadoqat va istihola unga uyqu bermagani, kalovlatib qo'ygani aniq. Bez ustiga eng yaqin ustoz va ulfatlarning jiddiy turib aytgan so'zlaridan shoirtabiat do'stim doldirib qolgan bo'lsa, nahordagi osh unga otushda kechgan umreday tuyulgan bo'lsa ajab emas.

Bu qattiq haziuning oxiri shu bo'ldiki, parishonhol O'tkirjon oldimga kelib kechirrim so'radi, qaytadan to'yona berdi. Bu gal to'yona oq qog'oz orasiga yaxshilab joylangan, ustiga «O'tkir Hoshimovdan deb yozilgan edi.

Aslida etomoshawni davom ettirib pulni cho'ntalikka solib qo'ysam-u bir oydan keyin ikki to'yonani qo'shib qaytarsam syni risolodagi ish bo'lardi. Lekin hafsalta bilan konvert qilib o'ralgan qog'oz va undagi ko'rga hassadek ism-familiyani ko'rganda o'zimni kulgidan to'xtata olmadim.

— Sodda bo'lmay qeling, O'tkirjon, — dedim chiroylli buklamani qaytarib, — ertalab keldingiz, to'yona berdingiz. Bunchalar parishon bo'imasangiz?

Birdan yuzi yorishib ketgan O'tkirjon to'yonani cho'ntagiga qaytiib soldi-da bir menga, bir hovli o'rtasiga qarab dedi:

- Albatta kelganman. Osh yedik, ko'rishdik... Eslamay o'libesamni... Lekin... o'nik daraxti qani?

Keyin eshitsam, mashbir adib o'zining o'shu kungi shwolini o'zi hikoya qilib yozibdi. Kitob bo'lib chiqsa o'qirman. Lekin har holda xotiniidan kalsak yeganesi yozmagandir. Oldindan aytay-qo'yay. Uning yozganiarida to'qima ko'p bo'ladi. Men bor gapni sytdim. Menga ishonavering.

## TUGATILGAN MUSHOARA

Oltmishinchchi yillarda Yozuvchilar uyushmasi turli ijodiy taderlar bilan gavjum bo'lardi. Abdulla Qakhoring yoshillar bilan muntazam uchrashuvlari, Mirtemir seminarı, Zulfiya to'garagi, Shayxoda suhabatlari juda qizg'in o'tar, yosh shoir va yozuvchilar uyushma dargohidan nari ketmasdilar. Ayniqsa har oyda bir o'tadigan mushoara mashbir edi. Kattagina zal yosh ijodkorlar, muxlis talabalar bilan to'lib ketardi. She'r kechasi o'ziga xos musobaqa maydoni edi. «Bu gal bayroq falonchida ketdi» degan ovoza viloyatlargacha tarqalar, keyingi mushoara intizorlik bilan kutildi.

Zibiladan keyin shahar ijrokomi binosiga ko'chirilgan uyeshmaning katta majlislar zalida o'tgan navbatdagagi mushoarada «O'zbegim» ilk bor jamaa hukmiga havola qilingan edi.

She'mi hayajon titrog'ida o'qib bo'lqanim, zalga cho'kkon sukonat, men qaytib joyimga o'tirganda ham davom etgan qarsaklar esimdan chiqmaydi. Muxlislardan biri she'r qo'lyozemasini so'rab oldi. Jumaniyoz Jabborov kelib qo'llisni siqdi. Musheora davom etdi. Navbat Abdulla Oripovga kelganda u minbarga ko'tarilib, hozirgina o'qilgan she'r to'g'risida ehtiros bilan gapirdi va o'z she'rini o'qish o'miga meni minbarga chaqirib, «O'zbegimoni qayta o'qib berishni so'radi.

Noidej yana minbarga chiqdim. Lekin qasida

matni qo'llimda yo'q edi. Ayrim bandlarini xotirada tiklab o'qib berdim.

O'sha she'rxonlik an'anasi ko'p o'tmay to'xtab qoldi. Bunda rasman nashr etilmasdan qo'lyozma shaklida muxlislar orasida tarqalib ketgan qasidaning ham sybi bo'lganidir. Negaki, «Uzilte deb atalgan senzura ko'zidan o'tmagan, uning ruxsat mulki bosilmagan biror qog'oz el ichida tarqatilishi mumkin emas, bunday ish u zamonda davlatga qarshi varaqqa tarqatish deb baholanar edi.

Balki, deyman o'zimcha, o'shanda qo'lyozmani hech kimga bermagan bo'lsam, boshqa hamma she'rlar kabi u ham avval masbuotda e'lon qilinib so'ng elga tarqalsa, kim bilsin, bu savdolar yo'qmidi...

Shunday deyman-u, lekin barcha g'avg'o qasida «Guliston» jurnalida chiqqandan keyin boshlandi.

## BERLINDAN XUSHXABAR

1974-yil yoz oylari edi. Men «Faust» tarjimonini sifatida Gyote vataniga taklif etildim. Bir oqshom Berlinning Unter den Linden ko'chasiда yolg'iz sayr qilib yurgan edim. Qarshimda Brandenburg darvozasi, uning ortida Reynstag xarobalari ko'rinish turardi. Juhon xalqlari boshiga, nemis xalqining o'ziga ham tengsiz kulfatlar keltingan Ikkinci jahon urushining o'chog'iga ro'baro' turardim. Ko'nglimda yaqin tarixning izzirobli xayollari edi. Shu payt orqadan ayol kishining sof o'zbek tilida «Erkin aks» deb chaqirganini eshitdim. Qarasam, nemis olimasi, turkshunos tarjimon Doris Shuls ekan. Bizni ko'rish uchun shu ko'chada joylashgan appartamentga kela turib meni ko'rib qolibdi. Eski qadrdonlарdek ko'rishdik va suhabatni Doris xonim – o'zbekcha ismi Dilorom – taklifi bilan sayr qilib davom ettirdik. Men olimga ijodiy faoliyatni, rejali haqida savollar berdim. Shunda u boshqa asarlar qatorida o'zbek

yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devai minib» romanini tarjima qilib nashriyotga topshirgannini aytadi.

Bu xushxabarni Toshkentga olib kelinganinda do'stlarimiz buni bayramday qarshi olgan edilar. U paylarda chet tiliga tarjima qilingan o'zbek kitoblarining soni barmoq bilan sanarli edi.

O'sha voqeaga qirq yilcha bo'libdi. Bugun Xudoyberdi To'xtaboyevning o'nlab kitoblari dunyoغا tarqaldi. Yoshlarimizning sevimli adibi – asarlari xorijiy tillarga eng ko'p tarjima qilingan yozuvchidir. U sakson yosh arafasida ham g'ayrat bilan ijod qilmoqda, kitoblari o'zimizda ham, duryo sahnazida ham qo'ldan qo'yilmay o'qilmoqda. Nashr etilgan asarlарining son-sinagog'ini adibasing o'zi ham bilmasa kerak.

Lekin men Berlinдан keltirgan xushxabar jahoniy mashhurlikning ilk mujossi edi. Bu bilan faxrlanib yursam arziydi.

## МУНДАРИЖА

Мен айтыб турай, сен бе!	3
Бу дүйнеге саломым күтпир	4
Партияникинг ўтили	5
Одаболи наоды	7
Болалигым болларын	9
Ишкөйбозлик балосяның мұнғофтағ айланысы	10
Күмілгап тракторалар	13
Хәйттинг бирелчи зарбасы	15
Бир жағынан иттеробалары	17
Коғынсанни топтольадынын	20
Ердөнгө келгап жордан	23
Балмаганининг бидагожынты	23
Уч соконининг саргуашы	25
Дурангта розынисыз, гроссмейстер?	27
Шафтоли гуллаганды	30
Полиглоттар	34
Антвара видолашуы	35
Соф үбекча сүт	36
Нидамас директориянг башорттың қазылы	38
Күнгілчанылым	39
Кечинсан қаждау	42
Берлингә әдінчай Ыл	43
Ялдын наист жүлдөз, шөңдерлар!	45
Мерганттык мақтабы	47
Шифокор сұманинг күсіреті	50
Одам тәнниш илми	53
Создатыл	56
Түйнек	58
Тутатылған мұшоара	62
Берлиндан хүшхабар	63

## MUNDARIJA

Men aytib turay, sen yoz!	46
Bu dunyoga savolim ko'pdır	47
Partikularning e'g'li	48
Odobli nodon	50
Bolaligim bog'iari	52
Ishqibodlik balosi yoki mukofotga aylangan jazo	53
Ko'milgan traktorlar	56
Hayotning birinchi zarbası	57
Bir aytuning iztirobbasi	58
Qoliyasini topolmadim	59
Yordonga kelgan sordan	65
Bilmaganining tilaq' osligi	66
Uch soqovning sarguzashsi	68
Durangga rozmiziz, grossameystar?	69
Shaftoli gullaganda	72
Poligjostalar	76
Antiga vidolashuv	77
Sof o'zbekcha so'z	78
Indomas diekkoming bushoratlari hazili	79
Ko'ngilchuslik	101
Kechikkan qahsqaha	103
Berlinga qascha yo'l	105
Yaxshi niyat qiling, shoirlar!	106
Merganlik maktabi	109
Shifokor so'zining qadrali	111
Odam tanish ilmi	114
Soddalik	117
To'yona	119
Tugatilgan mushora	123
Berlindan xushezalr	124

[De] tubiga cho'kkam hahalar